

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIOLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI AL – XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI TARIX FAKULTETI
TARIX KAFEDRASI**



**5120300 Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi
bakalavr darajasini olish uchun**

Tarix fakulteti IV bosqich talabasi Xudjayeva Guloraning

**O'ZBEKISTONDA AMIR TEMUR HAYOTI VA FAOLIYATI
TARIXSHUNOSLIGI.**

mavzusida yozgan

Bitiruv Malakaviy Ishi

Ilmiy rahbar:

t.f.n., dots. Matkarimova Sadoqat

Urganch – 2015

Bitiruv-malakaviy ishining titul varag'i

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

TARIX
(fakultet nomi)

TARIX
(kafedra nomi)


**O'ZBEKISTONDA AMIR TEMUR HAYOTI VA FAOLIYATI
TARIXSHUNOSLIGI.**
(bitiruv malakaviy ish mavzusining nomi)

Bajaruvchi:



Xudjayeva.G.X.

Ilmiy rahbar:



t.f.n.,dots. Matkarimova.S

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix

(fakultet nomi)

Tarix

(kafedra nomi)

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO'YICHA TOPSHIRIQLAR

REJASI:

Talaba Xudjayeva Gulora Xodjayazovna Universitet rektorining 2014-yil 15 noyabrdagi «**188T**» -sonli §1 buyrug'i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun “O'zbekistonda Amir Temur hayoti va faoliyati tarixshunosligi” mavzusi berildi.

2. Kafedra majlisining qaroriga binoan *t.f.n., dots. Matkarimova*. S bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.
3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi: *Kirish, 3 ta bob, 6 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar, taqdimotdan iborat*.
4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma'lumotlar: Prezident asarlari, qaror va farmonlari, ta'lim sohasiga oid qonunlardan.

Ilmiy adabiyotlar: Б.В.Лунин “Темур ва Улубек даври тарихи”, монографияси, Э.В.Ртвеладзе ва А.Х. Сайдовлар tomonidan tayyorlangan “Амир Темур дунё фани кўзгусида” (“Амир Темур в зеркале мировой науки”) nomli bibliografik asar, Sh.O'ljayevaning nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati Д.Абиджанованинг “XX asr 60-90 йиллари инглиз тарихшунослигига Мовароуннахрда Амир Темур ҳукмронлиги” adabiyotlardan foydalanildi.

5. Bitiruv malakaviy ishga *fotosuratlar, jadval, taqdimot* ilova qilinadi.


Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali

<i>Nº</i>	<i>Bajarilgan ishning mazmuni</i>	<i>Bajarish muddati</i>
1	Bitiruv malakaviy ish mavzusini tanlash va adabiyotlar ro'yhatini tuzish. Adabiyotlar bilan tanishish va bitiruv	2014-yil dekabr oyi 2014-yil dekabr oyi

--	--

4	1.2 Me'morchilik va san'at taraqqiyotiga oid tadqiqotlar tahlili	2015-yil yanvar oyi
5	Mavzuning ikkinchi bobini tashkil etuvchi:	
6	2.1 Amir Temurning siyosiy hokimiyatga kelishigacha bo'lgan davrdagi faoliyatining o'r ganilishi	2015-yil fevral oyi
7	2.2 Davlat boshqaruvi tizimining tarix fanida yoritilishi	2015-yil mart oyi
8	Mavzuning uchunchi bobini tashkil etuvchi: 3.1 Movarounnahrning XIV–XV asr boshidagi ijtimoiy – iqtisodiyotiga oid izlanishlar	2015-yil mart oyi
9	3.2 Ilm-fan rivojining tadqiqotlarda yoritilishi	2015-yil aprel oyi
10	Bitiruv malakaviy ishining kirish va xulosa qismini yozib tamomlash.	2015-yil aprel oyi
11	Ilmiy rahbar tavsiyanomasi va taqrizchi domлага yozgan ishni ko'rsatish, hamda xato va kamchiliklarini to'g'irlagan holda taqriz yozdirib olish.	2015-yil may oyi
12	Ilova va taqdimot ishini tayyorlash va bitiruv malakaviy ishining rahbar tavsiyasiga ko'ra himoyasiga tayyorlanish.	2015-yil iyun oyi

Bitiruv malakaviy ish rahbari:  t.f.n.,dots. Matkarimova S


Bajaruvchi talaba:  Xudjayeva.G.X.

2015 yil «10 » iyun

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 2014-yil 28-noyabrda tasdiqlandi.

«7»- sonli bayon nomma

Kafedra mudiri: t.f.n.,dots. Abdullaev Temur Po'latovich


 (imzo)

3-ilova

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA RAHBARINING

MULOHAZALARI

Talaba: Xudjayeva Gulora Xodjayazovna

Bitiruv malakaviy ish mavzusi: O'zbekistonda Amir Temur hayoti va faoliyati tarixshunosligi

Bitiruv malakaviy ish xajmi: Kirish, 3 bob, 6 ta paragraf, xulosa, adabiyotlar ro'yxati, ilova, taqdimot.

Tushuntirish qismi 3 bob, 6 ta paragrafdan iborat.

Ilovalar soni: 4 bet

Mavzuning dolzarbliji. Markaziy Osiyo mintaqasining o'ziga xos o'tmishi, uning hududida ko'plab davlat birlashmalarining, xususan, buyuk Amir Temur salatanatining tashkil topishi va taraqqiy etganligi, bu yerda sodir bo'lgan jarayonlarning jahon tarixidagi ahamiyati turli mamlakat tarixchilarining katta qiziqishiga sabab bo'lmoqda.

Bugungi kunda tarixiy meros, tarixiy xotiraning qayta tiklanishi nafaqat O'zbekiston Respublikasi rahbariyati va tarixchilarining, shu bilan birga keng jamoatchilikning diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda. Bu esa, O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov tomonidan bir necha marta ta'kidlangan va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maxsus qarorlari bilan belgilanishi tarix fani oldiga katta mas'uliyatni yuklaydi.

Mustaqillik yillarda O'zbekiston olimlarining samarali tadqiqotlari natijasida milliy tariximizning ilgari noma'lum bo'lgan sahifalari ochildi, tarixiy o'tmishimizning ko'p jihatlari kashf etildi. Tarixiy haqiqatni tiklash jarayonida zamonaviy yondashuvni talab qiladigan dolzarb muammolar mavjud bo'lib, ular qatoriga, davlatchiligidan tarixida chuqur iz qoldirgan tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatini tadqiq etish muhim ahamiyatga egadir. Shunday shaxslardan biri Sohibqiron Amir Temur bo'lib, "tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo'lgan bu mumtoz siymo buyuk sultanat barpo etib, davlatchilik borasida o'zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilmu fan, madaniyat bunyodkorlik, din va ma'naviyat rivojiga keng yo'l ochdi".

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov Amir Temur nomini tiklash va abadiylashtirish masalalariga katta e’tibor qaratdi. Bu yillar uning shaxsi va tarixini qayta tiklash yillari bo‘ldi. Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash va 1996 yilni “Amir Temur yili” deb e’lon qilish to‘g‘risida, “Temuriylar tarixi” davlat muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”, “Amir Temur ordenini ta’sis etish to‘g‘risida” kabi qator farmon va qarorlar, hamda ularning ijrosi muhim tarixiy voqeа bo‘lib, ushbu mavzuni davlat miqyosida ko‘tarilishi uning yanada dolzarbligini ko‘rsatadi.

Dunyo ilmiy jamoatchiligining Amir Temur shaxsiga bo‘lgan e’tiborini hisobga olib, YUNESKO tomonidan Parijda “Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat va maorifning gullab yashnashi” haftaligi o’tkazildi.

Bu tadbirlar samarasi o‘laroq, Amir Temur hayoti va faoliyatiga oid yangi tadqiqotlar, manbalar ilmiy muomalaga kiritildi. Prezident I.A. Karimov ta’kidlaganidek: “bizning tariximizda Amir Temurday ulug‘ siymo bor ekan, uning qoldirgan merosi, pandu-o‘gitlari bugungi hayotimizga hamohang ekan, oldimizda turgan bugungi muammolarni yechishda bizga qo‘l kelayotgan ekan, bizning bu merosni o‘rganmasdan, ta’riflamasdan, targ‘ibot qilmasdan haqqimiz yo‘q”.

Mustaqillik yillarida Amir Temur shaxsi va davriga oid shu qadar ko‘plab manbalar tarjimasi amalga oshirildi, tarixiy-ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar yaratildiki, bu ularni tarixshunoslik nuqtai nazaridan tizimlashtirish, ilmiy tahlil etish, yutuq va kamchiliklarini aniqlash zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa zamonaviy tarix fani uchun dolzarb hisoblandi.

Bitiruvchi umumkasbiy va maxsus tayyorgarligining tavsifi: *Talaba Xudjayeva Gulora Xodjayazovna 4 yil davomida o’z mahoratini, qobiliyatini ishga solib tarixiy bilimlarni egallashga harakat qildi. Kelajakda u yaxshi mutaxasis va pedagog bo’lishi mumkin.*

Bitiruvchi talabaning mustaqil ishni bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari: *Xudjayeva Gulora Xodjayazovna o’ziga topshirilgan mustaqil vazifalarini a’lo darajada uddalay oldi. U ishni yozish davomida asosiy manbalar-ilmiy adabiyotlardan unumli foydalana*

oldi. Ko'chirmalardan foydalanishni, ularga nisbatan fikr bildirishni va tahlil qilishni o'rgandi. Talaba Xudjayeva Gulora Xodjayazovna tartibli, a'lochi va unda muomala madaniyati yaxshi shakllangan.


Bitiruv malakaviy ishning ijobili tomonlari: Bitiruv malakaviy ishi yangi adabiyotlar asosida milliy qadriyatlarimiz, mustaqillik mafkurasiga asosan, real va tarixga xolisona tarzda yoritilganligi ishning ijobili qismini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talablarning bajarilishi darjasи: Bitiruv malakaviy ish hajmi, mohiyati va mazmuni jihatdan DTS va DAK talablariga to'la javob beradi.

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

t.f.n., dots. Matkarimova.S

2015 yil «3»iyun



Urganch davlat universiteti

Tarix fakulteti

5120300 tarix ta'lim yo'naliши

Xudjayeva Gulora Xodjayazovnaning

Bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Bitiruv malakaviy ish mavzusi: O'zbekistonda Amir Temur hayoti va faoliyati tarixshunosligi

Malakaviy ishning hajmi: 13502 so'zdan iborat.

a) tushuntirish qismi varaqlar soni: 56 sahifadan iborat

b) ilovalar soni: 4 bet

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi: Mavzuning dolzarbligi to'la yoritilgan.

Bitiruv malakaviy ishning «Kirish» qismida va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati: *Talablar darajasida bajarilgan.*

Malakaviy ishda ilmiy manbalar: Prezident asarlari, qaror va farmonlari, ta'lif sohasiga oid qonunlaridan.

Ilmiy adabiyotlar: Б.В.Лунин “Темур ва Улубек даври тарихи”, монографияси, Э.В.Ртвеладзе ва А.Х. Сайдовлар томонидан tayyorlangan “Амир Темур дунё фани кўзгусида” (“Амир Темур в зеркале мировой науки”) nomli bibliografik asar, Sh.O'ljayevaning nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati Д.Абиджанованинг “XX asr 60-90 йиллари инглиз тарихшунослигида Мовароуннахрда Амир Темур хукмронлиги ” adabiyotlardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi: Bitiruv malakaviy ishi ilmiy xulosalarga asoslangan, ilmiy terminlardan ijobiy tarzda foydalanilgan. Uslubiy jihatdan ta'lim talablariga javob beradi. Prezentatsiyalar a'lo darajada ishlangan.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari: Bitiruv malakaviy ishi o'zbek tilida, grammatik va orfografik xatolardan holi

tarzda, zarur manba adabiyotlardan to'g'ri foydalanib yozilgan. Uning kirish qismida mavzuning dolzarbliji asoslangan. Boblar va ulardagi paragraflar o'ziga mos tarzda ilmiy jihatdan yoritilgan. Ko'chirmalardan to'g'ri foydalanilgan. U DAK talablariga javob beradi. Talabaning ilmiy ishidan referat, mustaqil ish va kurs ishlari, maqola yozishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar: *Bitiruv malakaviy ishida ba'zi bir juz'iy kamchiliklar bor. Bu kamchiliklar ishning mazmun va mohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.*

Taqrizchi

Xorazm viloyati Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar" kafedrasi mudiri

(mansabi, ish-joyi, darajasi)

t.f.n dots. G.Xusainbekova.

(FISH)

G.M.B.
(imzo)

2015 yil «1» iyun



*rezalar
rezurslar
G.M.B.*

Bitiruv malakaviy ishni DAK tomonidan baholash mezonlari

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida
1	BMI ning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35
3	“Xulosa” qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10
5	Ishdagagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferenstiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10

Eslatma: har bir kafedraning xususiyatlari e'tiborga olingan holda baholash mezonlariga o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

Urganch davlat universiteti Tarix fakulteti

5120300 tarix yo'nalishining bitiruvchisi Xudjayeva Gulora Xodjayazovna ning "O'zbekistonda Amir Temur hayoti va faoliyati tarixshunosligi" mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAK ning 2015 yil «18-iyun» dagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestatstiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilaydi.

Nº	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida	Komissiya belgilagan ball
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbliji, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35	
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	
5	Ishdagagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5	
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferensiylarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiropi, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10	
Jami:			

Davlat attestatstiya komissiyasi majlisining qarori:

1. "O'zbekistonda Amir Temur hayoti va faoliyati tarixshunosligi" mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun _____ lik o'zlashtirish ko'rsatkichi belgilanish va «_____» deb baholansin.
2. _____

DAK raisi: _____

A'zolari: _____

2015 yil «_____» _____

Urganch davlat universiteti Tarix Fakulteti Tarix kafedrasi
Bitiruv malakaviy ish _____ sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi: Xudjayeva Gulora Xodjayazovna

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi: "O'zbekistonda Amir Temur hayoti va faoliyati tarixshunosligi"

Ilmiy rahbar (maslahatchi) ning ismi-sharifi: t.f.n., dots. Matkarimova. S



Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2015 yil «_____» _____ da o'tkazilgan majlisiga qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qildi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib Xorazm viloyati xalq ta'limi hodimlari sayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish instituti kafedra mudiri Xusainbekova Gulchexra tayinlandi.


Kafedra mudiri:



t.f.n., dots. Abdullayev T.P.

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo'yicha tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani:



t.f.n., dots. Shixov O.O.



Urganch davlat universiteti Tarix Fakulteti Tarix kafedrasи
5120300 – Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) yo'nalishi.

Tasdiqlayman
fakultet dekani t.f.n. dots.

O.O.Shixov

"28" noyabr 2014 y,



BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talaba: Xudjayeva Gulora Xodjayazovna





1. Ishning mavzusi: "O'zbekistonda Amir Temur hayoti va faoliyati tarixshunosligi" mavzusi Universitet rektorining 2014-yil 15 noyabrdagi «188T» §1 sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: "1" iyun 2015 y.

3. Mavzu bo'yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro'yxati:

1. Каримов И.А. Биздан озод ва обод ватан қолсин. Т.2. – Т.: Ўзбекистон, 1996;
2. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир.. Т.3. – Т.: Ўзбекистон, 1996;
3. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлида.. Т.4. – Т.: Ўзбекистон, 1996;
4. Аҳмедов А. Амир Темур ҳақида ҳақиқат // Сомон йўли. – Т.: Камалак, 1992..
5. Норқулов Н. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавҳалар. – Урганч: Хоразм
6. Бўрийев О. Темурийлар даври манбаларида Чагониён. – Т.: Фан, 2001.–30 б.

4. Ishning maqsadi: Bitiruv malakaviy ishi mavzusidan kelib chiqib, qo'yilgan muammoning dolzarbligini e'tiborga olgan holda, tadqiqotning maqsadi manbalarni har tomonlama puxta va xolis yoritish yo'li bilan mustaqillikning tarixiy ahamiyatini ko'rsatib berish, mustaqillik yillarida O'zbekistonda tashkil etilgan fuqarolik jamiyatni asoslarini shakllantirilishi, O'zbekistonning hozirgi davrdagi Osiyo davlatlari bilan bo'lgan aloqalari, jamiyatimizda keyingi yillarda yuz bergen o'zgarishlar haqida so'z yuritishdan iborat.

Bo'limlar	Maslahatchi F.I.Sh.	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq qabul qildi
1.1 Mustaqillik davri tadqiqotlarida Amir Temur hayoti va faoliyati tahlili	t.f.n.,dots. Matkarimova.S	05.12.2015	12.12.2014 
1.2 O'zbekistonning Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligining me'yoriy-huquqiy asoslari	t.f.n.,dots. Matkarimova.S	09.01.2015	16.01.2015 
2.1 Amir Temurning siyosiy hokimiyatga kelishigacha bo'lgan davrdagi faoliyatining o'r ganilishi	t.f.n.,dots. Matkarimova.S	23.01.2015	06.02.2015 
2.2 Davlat boshqaruvi tizimining tarix fanida yoritilishi	t.f.n.,dots. Matkarimova.S	20.03.2015	10.03.2015 
3.1 Mavarounnahrning XIV–XV asr boshidagi ijtimoiy – iqtisodiyotiga qid izlanishlar	t.f.n.,dots. Matkarimova.S	01.04.2015	22.04.2015 
3.2 Ilm-fan rivojining tadqiqotlarda yoritilishi	t.f.n.,dots. Matkarimova.S	29.04.2015	20.05.2015 

Ishga taqriz yozuvchining F.I.SH., ilmiy darajasi, unvoni: Xorazm viloyati Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti "Tijtimoiy-iqtisodiy fanlar" kafedrasi mudiri

t.f.n dots. G.Xusainbekova



G.X.

(imzo)

уизори тақдимотига турибди

G.X.

Ilmiy rahbar:

t.f.n Matkarimova.S

(FISH)

G.X.

(imzo)

BMI bajaruvchi talaba:

Xudjayeva.G.X

(F.I.Sh.)

G.X.

(imzo)

Kafedra mudiri:

Abdullayev.T.P

(F.I.Sh.)

G.X.

(imzo)

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. AMIR TEMUR HAYOTI VA FAOLIYATIGA OID MANBALAR VA TARIXIY BILIMLARNING RIVOJLANISHI.....	8
1.1- § Mustaqillik davri tadqiqotlarida Amir Temur hayoti va faoliyati tahlili.....	8
1.2- § Me'morchilik va san'at taraqqiyotiga oid tadqiqotlar tahlili.....	15
II BOB. AMIR TEMURNING SIYOSIY FAOLIYATI TARIXSHUNOSLIGI..23	
2.1-§ Amir Temurning siyosiy hokimiyatga kelishigacha bo'lgan davrdagi faoliyatining o'r ganilishi.....	23
2.2- § Davlat boshqaruvi tizimining tarix fanida yoritilishi.....	28
III BOB. AMIR TEMUR SALTANATIDA IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOT TARIXSHUNOSLIGI.....38	
3.1-§ Mavarounnahrning XIV–XV asr boshidagi ijtimoiy – iqtisodiyotiga oid izlanishlar.....	38
3.2- § Ilm-fan rivojining tadqiqotlarda yoritilishi	45
XULOSA.....	53
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.....	57
ILOVA.....	63

KIRISH

Mavzuning dolzarblii. Markaziy Osiyo mintaqasining o‘ziga xos o‘tmishi, uning hududida ko‘plab davlat birlashmalarining, xususan, buyuk Amir Temur sultanatining tashkil topishi va taraqqiy etganligi, bu yerda sodir bo‘lgan jarayonlarning jahon tarixidagi ahamiyati turli mamlakat tarixchilarining katta qiziqishiga sabab bo‘lmoqda.

Bugungi kunda tarixiy meros, tarixiy xotiraning qayta tiklanishi nafaqat O’zbekiston Respublikasi rahbariyati va tarixchilarining, shu bilan birga keng jamoatchilikning diqqat e’tiborida bo‘lib kelmoqda. Bu esa, O’zbekiston Prezidenti I.A. Karimov tomonidan bir necha marta ta’kidlangan¹ va O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maxsus qarorlari² bilan belgilanishi tarix fani oldiga katta mas’uliyatni yuklaydi.

Mustaqillik yillarida O’zbekiston olimlarining samarali tadqiqotlari natijasida milliy tariximizning ilgari noma’lum bo‘lgan sahifalari ochildi, tarixiy o‘tmishimizning ko‘p jihatlari kashf etildi. Tarixiy haqiqatni tiklash jarayonida zamonaviy yondashuvni talab qiladigan dolzarb muammolar mavjud bo‘lib, ular qatoriga, davlatchiligidan tarixida chuqur iz qoldirgan tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatini tadqiq etish muhim ahamiyatga egadir. Shunday shaxslardan biri Sohibqiron Amir Temur bo‘lib, “tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo‘lgan bu mumtoz siymo buyuk sultanat barpo etib, davlatchilik borasida o‘zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilmu fan, madaniyat bunyodkorlik, din va ma’naviyat rivojiga keng yo‘l ochdi”³.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov Amir Temur nomini tiklash va abadiylashtirish masalalariga katta e’tibor qaratdi. Bu yillar uning shaxsi va tarixini qayta tiklash yillari bo‘ldi. Amir

¹ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998. – 31 б; Ўша муаллиф. Ватан равнақи учун ҳар биримиз маъсулмиз. – Т.: Ўзбекистон, 2001. Т. 9. – Б. 99-104, 220-224.

² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг “Ўзбекистоннинг янги тарихи”ни тайёrlаш ва нашр этиш тўғрисидаги қарори. Т.: 1996 й. 16 декабрь // Халқ сўзи. 1996, 17 декабрь.

³ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – Б. 44-45.

Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash va 1996 yilni “Amir Temur yili” deb e’lon qilish to‘g‘risida, “Temuriylar tarixi” davlat muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”, “Amir Temur ordenini ta’sis etish to‘g‘risida” kabi qator farmon va qarorlar, hamda ularning ijrosi muhim tarixiy voqeal bo‘lib, ushbu mavzuni davlat miqyosida ko‘tarilishi uning yanada dolzarbligini ko‘rsatadi.

Dunyo ilmiy jamoatchiligining Amir Temur shaxsiga bo‘lgan e’tiborini hisobga olib, YUNESKO tomonidan Parijda “Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat va maorifning gullab yashnashi” haftaligi o‘tkazildi.

Bu tadbirlar samarasi o‘laroq, Amir Temur hayoti va faoliyatiga oid yangi tadqiqotlar, manbalar ilmiy muomilaga kiritildi. Prezident I.A. Karimov ta’kidlaganidek: “bizning tariximizda Amir Temurday ulug‘ siymo bor ekan, uning qoldirgan merosi, pandu-o‘gitlari bugungi hayotimizga hamohang ekan, oldimizda turgan bugungi muammolarni yechishda bizga qo‘l kelayotgan ekan, bizning bu merosni o‘rganmasdan, ta’riflamasdan, targ‘ibot qilmasdan haqqimiz yo‘q”⁴.

Mustaqillik yillarida Amir Temur shaxsi va davriga oid shu qadar ko‘plab manbalar tarjimasi amalga oshirildi, tarixiy-ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar yaratildiki, bu ularni tarixshunoslik nuqtai nazaridan tizimlashtirish, ilmiy tahlil etish, yutuq va kamchiliklarini aniqlash zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa zamonaviy tarix fani uchun dolzarb hisoblandi.

Bitiruv malakaviy ishining davriy chegarasi 1991 – 2014 yillarni o‘z ichiga olib, O’zbekiston mustaqilligi davrida Amir Temur hayoti va faoliyatiga doir chop etilgan ilmiy nashrlar tahlil etiladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, Amir Temur va Temuriylar davriga oid mustaqillik yillarida bir necha tarixshunoslik ishlari amalgaga oshirildi. Xususan, B.V. Lunin “Temur va

⁴ Каримов И.А. Амир Темур – фахримиз, ғуруримиз. Амир Темур таваллудининг 660 йиллигига бағишланган Халқаро илмий конференциядаги маъруза, 1996 йил 24 октябрь // Халқ сўзи. 1996, 25 октябрь.

Ulug‘bek davri tarixi”⁵ nomli kollektiv monografiyada “Temur va uning davrini o‘rganishga oid asosiy manbalar, hamda ilmiy adabiyotlarni tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilib berdi.

E.V. Rtvveladze va A.X. Saidovlar tomonidan tayyorlangan “Amir Temur dunyo fani ko‘zgusida” (“Amir Temur v zerkale mirovoy nauki”⁶) nomli bibliografik nashrda chet tillarda chop etilgan Temur va uning davri tarixini o‘rgangan xorijiy adabiyotlarni tizimga solinishini mukammallikka yetkazishga harakat qildilar.

Amir Temur hayoti, davri va davlatchilik faoliyatini tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etuvchi dissertatsiya ishlari himoya qilindi. Jumladan, Sh.O’ljayevaning nomzodlik dissertatsiyasi XX asrning 50-60 yillarida Amir Temur va Temuriylar davri tarixshunoslige bag‘ishlangan bo‘lsa, D. Abidjanovaning “XX asr 60-90 yillari ingliz tarixshunoslida Movarounnahrda Amir Temur hukmronligi davri” mavzusidagi nomzodlik ishida Amir Temur davri tarixiga oid ingliz tilidagi adabiyotlarning tahlili amalga oshirildi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi – O’zbekiston mustaqilligi yillarida Amir Temur hayoti va faoliyatiga oid amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarni tarixshunoslik doirasida ularning yo‘nalishlari va mohiyatini tahlil etishdan iborat.

Shunga ko‘ra, ishda quyidagi **vazifalar** amalga oshiriladi:

- mustaqillik yillarida sharqshunos olimlar tomonidan tarjimasi amalga oshirilgan Amir Temur va Temuriylar davri yozma manbalarini o‘rganish, tahlil etish, ularning ahamiyatini ko‘rsatish;
- mavzuga tegishli bo‘lgan turli soha vakillari tadqiqotlarini umumlashtirish, tizimga solish va yondashuvlarini ochib berish;
- Amir Temur siyosiy faoliyatiga oid ilmiy adabiyotlarning tarixshunoslik tahlilini amalga oshirish;

⁵ Темур ва Улугбек даври тарихи. – Бош мухаррир А. Асқаров. Масъул мухаррир О.Одилхон. Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1996. – Б. 28-42.

⁶ Ртвевладзе Э.В., Saidov A.X. Амир Темур в зеркале мировой науки. – Т.: Издательский дом Мир экономики и права, 1999. – 112 с.

– Movarounnahrning XIV – XV asr boshidagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, ilm-fan rivoji, me’morchilik va san’at taraqqiyotiga doir tadqiqotlarni o‘rganish, ularga xolis baho berish.

Bitiruv malakaviy ishining ob’ekti va predmeti: Mustaqillik yillarda O’zbekistonda Amir Temur hayoti va faoliyatiga oid amalga oshirilgan tadqiqotlar, manbashunos va temurshunos tadqiqotchilarning mustaqillik yillardagi ilmiy izlanishlarda qayd etilgan fikrlar, qarashlar, yondashuvlar.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va metodologik asosi. O’zbekiston Republikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlarida o’zbek xalqining tarixi, madaniyati, ma’naviyatiga oid bildirilgan fikr va mulohazalari, xulosalari tadqiqotning metodologik asosini belgilashda muhim manba bo‘lib xizmat qildi.

Bitiruv malakaviy ishining manbaviy asoslarini O’zbekiston mustaqilligi yillarda chop etilgan Amir Temur hayoti va faoliyati yoritilgan ilmiy tadqiqotlar, risolalar, ilmiy maqolalar to‘plami, konferensiya materiallari, matbuot materiallari, o‘zbek va rus tiliga tarjima qilingan manbalar, ilmiy-ommabop nashrlar tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda birinchi marta mustaqillik yillarda Amir Temur hayoti va faoliyatiga oid O’zbekistonda amalga oshirilgan turli xususiyatga ega tadqiqotlar tarixshunoslik doirasida umumlashtirildi, tizimlashtirildi va kompleks ravishda tahlil etildi.

– ilk bor manbashunoslardan amalga oshirilgan Amir Temur davri yozma manbalarini tarjimalari, ularning ahamiyatiga yangicha tarixshunoslik nuqtai nazaridan baho berildi;

– ilk bor Movarounnahrning XIV – XV asr boshidagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, ilm-fan rivoji, me’morchilik va san’at taraqqiyotiga doir tadqiqotlar tarixshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishi materiallaridan Amir Temur tarixiga oid O’zbekiston tarixi fanidan, tarixshunoslik o‘quv fanlarida, maxsus kurslarda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining metodlarini tarixiy tadqiqotlar uchun umumiy qabul qilingan xolislik, tarixiylik, tanqidiylik tamoyillari, muammoviy mushohada, qiyosiy tahlil usullari tashkil etdi. Xususan, tarixshunoslikning o‘ziga xos bo‘lgan qiyosiy-tarixiy, muammoli-xronologik metodlardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I BOB. AMIR TEMUR HAYOTI VA FAOLIYATIGA OID MANBALAR VA TARIXIY BILIMLARNING RIVOJLANISHI

1.1 Mustaqillik davri tadqiqotlarida Amir Temur hayoti va faoliyati tahlili

Amir Temur hayoti va faoliyati har bir davrda dunyo olimlarining diqqat markazida bo'lib keldi. G'arb tarixshunosligida Amir Temur shaxsiga e'tibor XVIII asrdanoq boshlangan va kelgusi davrlarda uning hayoti, faoliyatiga qiziqish doimo ortib borgan edi. Jahan tarixshunosligida Amir Temur to'g'risida ko'plab monografiya va maqolalar yozilib nashr etildi. Ularda Sohibqironning davlat, ijtimoiy-siyosiy qurilishi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, ma'muriy tizim, harbiy yurishlar, diplomatiya, din, fan, madaniyat, san'at sohalaridagi ko'p qirrali faoliyati yoritilgan. XX asr jahon sharqshunosligida mustaqil ilmiy yo'nalish – "Temurshunoslik" shakllandi va ular orasida R.Grosse, L.Keren, Ye.Rose, X.Xukxem, F. Mans, G. Golombek, A. Derg, K. Yenoki, Ye. Manu, M. Rossati va boshqalarning asarlarini qayd etish o'rini. Bugungi kunga kelib Amir Temur haqidagi o'rta asrlarga oid ko'plab yozma manbalar Yevropa tillarida bosilib chiqqan. 1996 yil boshlarida chet el tadqiqotchilarining Parijda e'lon qilingan Amir Temur va Temuriylar haqidagi tadqiqotlari bibliografiyasi ro'yxatiga 450 dan ortiq asar kiritilgan edi⁷. 2000 yillarga kelib o'tgan vaqt mobaynida yana 50 dan ziyod tadqiqot mavjudligi aniqlandi⁸.

Amir Temurning bunyodkorlik, ilm-fanga e'tibori V.V.Bartold, A.Yu.Yakubovskiy asarlarida ma'lum bir ma'noda o'z aksini topgan edi⁹.

⁷ Ртвеладзе Э.В, Саидов А.Х. Амир Темур в зеркале мировой истории. Библиография.–Париж, 1996. – 28 с.

⁸ Амир Темур жаҳон тарихида. Муҳаррирлар: Ҳ. Нурмуҳамедов ва бошқ. 2001. – Б. 213.

⁹ Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана / Соч. – М.: 1963. Том II. Ч. I. – С. 109-166; Якубовский А.Ю. Мастера Ирана и Средней Азии при Тимуре. Иранское искусство и археология. III Международный конгресс. – М.–Л., 1939.

Yirik bibliograf B.V. Lunin mustaqillikkacha bo‘lgan davrda Amir Temur va Temuriylar davri tarixnavisligini tadqiq etgan. Olim Temuriylar davri tarixi bo‘yicha bibliografik ko‘rsatkich ham tuzgan¹⁰.

1968 yilda akademik I. Mo‘minovning “Amir Temurning O’rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli”¹¹ haqidagi risolasining nashr etilishi keng jamoatchilikning bu mavzuga qiziqishini avj oldirib yubordi.

Amir Temur hayoti va faoliyatiga qiziqish hamda xolis yoritishga intilish O’zbekistonda 1980 yil oxirlaridan boshlandi. Bu ilm-fandagi oshkorralik to‘lqini tarix fanida nisbatan erkin fikrlash, xolis ilmiy xulosalarni o‘rtaga tashlash imkoniyatini tug‘dirdi va mavzuga taalluqli sanoqlari e’lon qilindi.

1990 yillar boshlarida B.V. Lunin, A. Ahmedov, B. Ahmedov kabi olimlar Amir Temur tarixini qayta, xolis o‘rganish masalasini ko‘tarib chiqib, uning shaxsiga yuqori baho berdilar.

Amir Temur shaxsini xolis o‘rganish masalasi shubhasiz, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov nomi bilan chambarchas bog‘liq. Zero, uning tashabbusi bilan Amir Temur tarixini har tomonlama chuqur o‘rganish va tadqiq qilish kerakligi, tarixiy adolatni qaror toptirish zamonaviy temurshunoslikning muhim vazifalaridan biri ekanligi e’tirof etildi. 1993 yil 31 avgustda Toshkentda Amir Temur xaykalining ochilish marosimidagi nutqida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov: “Amir Temur mamlakat qudratini har sohada yuksaklikka ko‘tarib, dunyoga mashhur qildi. Amir Temur davlati qurilishi, harbiy san’ati ko‘p asrlar davomida Sharqu G’arb davlatlariga o‘rnak va andoza bo‘ldi. Uning zamonida madaniyat, ilmu-fan me’morchilik, tasviriy san’at, musiqa, she’riyat beqiyos rivoj topdi, xalqimizning ko‘p an’analari takomiliga yetdi”¹², – deb juda to‘g‘ri ta’kidladi. Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to‘g‘risida va 1996 yilni “Amir

¹⁰ Лунин Б.В. История, культура и искусство времени тимуридов в советской литературе (библиографический указатель) // ОНУ. – Т.: 1969. – № 8-9. – С. 100-145.

¹¹ Мўминов И.М. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли ёзма манбалар маълумотлари асосида. – Т.: 1968. – 51 б.

¹² Каримов И.А. Тошкентда Амир Темур хайкалини очилишига бағишлиланган тантанада сўзланган нутқ 1993 йил 31 август... – Б. 360-362.

Temur yili” deb e’lon qilish to‘g‘risida hukumat qarorlari temurshunoslik sohasining keyingi taraqqiyoti uchun katta zamin yaratdi. Amir Temurning dunyo sivilizatsiyasi rivojiga qo‘sghan hissasi, tarixdagi buyuk xizmatlari YUNESKO tomonidan e’tirof etilib, uning 660 yillik yubileyi Parijda keng nishonlandi.

1998 yilda Prezident I.A. Karimovning tarixchilar bilan uchrashuvi, eng muhimmi “O’zbek xalqi davlatchiligi tarixi konsepsiysi”ning yaratilishi, hamda unda Amir Temur va Temuriylar davri alohida bosqich etib belgilanganligi kelgusi tadqiqotlar uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Tabiiyki, mazkur tadbirlar O’zbekistonda Amir Temur hayoti va faoliyatiga oid ilmiy bilimlarning rivojiga, yangicha yondoshuvlarning shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qildi.

Turli yozma manbalar o‘zbek, fors, arab tilida bitilgan manbalardan olingan faktik ma’lumotlar asosida O’zbekiston davlatchiligi tarixiga borib taqaluvchi o‘zbek davlatchiligi tarixi, ayniqsa, yirik davlat arbobi Amir Temur davridagi rivojini yoritgan ko‘pgina tadqiqotlar yaratildi.

Ayniqsa, Parijda o‘tkazilgan “Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat va maorifning gullab yashnashi” mavzudagi konferensiyada o‘zbek olimlarining mavzuni asosiy manbalar yordamida yoritib berishi muhim ahamiyat kasb etdi.

Bu o‘rinda “Amir Temur jahon tarixida”¹³ nomli asarni alohida ko‘rsatib o‘tish lozim. Unda juda jonli, asosli tarzda Amir Temur davlati tarixi, Sohibqironning mamlakatni chet el bosqinchilari hukmronligidan ozod qiluvchi xalqlarning kurashi, Amir Temur davlatining iqtisodiy o‘sishi va savdo aloqalari, xalqaro aloqalar va diplomatiya, ilm-fan va madaniyati har tomonlama ochib berilgan. Ushbu kitobga bo‘lgan qiziqish bu asarni 2001 yilda qayta nashr etishga olib keldi.

1996 yili chop etilgan yana bir yirik asar “Temur va Ulug‘bek davri tarixi”¹⁴dir. Unda Amir Temur va Temuriylar davrini o‘rganishga bag‘ishlangan manbalar, bu davrni o‘rganishga xizmat qiluvchi adabiyotlar, Temur obrazining folklorda aks

¹³ Амир Темур жаҳон тарихида. Муҳаррирлар: Ҳ. Нурмуҳамедов ва бошқ. 2001. – Б. 213.

¹⁴ Темур ва Улугбек даври тарихи. – Бош муҳаррир: А. Аскаров. Маъсул муҳаррир О.Одилхон Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1996.

etishi, Temur va Ulug‘bekning tarjimai holi, Temur va Ulug‘bek davridagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot masalalari atroflicha yoritilgan.

Eng avvalo Amir Temur bibliografiyasi tuzish ishlariga katta e’tibor qaratildi. 1995 yil R. Alimov tomonidan “Sohibqiron Amir Temur” metodik tavsiyanomasi, 1999 yil akademik E.V. Rtveladze va professor A.X. Saidovlar tomonidan “Amir Temur dunyo fani ko‘zgusida” bibliografiyasi nashr etildi.

2003 yilda “Amir Temur bibliografiyasi” nashr etilib, unda qo‘lyozmalar, yozishmalar; MDH davlatlari xalqlari; Yevropa va Sharq tillaridagi kitoblar keltirilgan. Ammo bibliografiyaning adabiyotlar ro‘yxatida ayrim xatoliklar, qaytarishlar borligi, shoshma-shosharlikda chop etilganligi va ilmiy tahrirga muhtojligi ko‘zga tashlanadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, O’zbekistonda mavzuga doir tadqiqotlarning kengayishida Amir Temur va Temuriylar davriga oid o‘tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlarning ahamiyati beqiyos bo‘ldi. Tabiiyki, har bir konferensiya yakunida uning materiallari tezislari, maqolalar shaklida nashr etildi.

Aytish joiz, ushbu anjumanlarda yirik temurshunos olimlar bilan bir qatorda shu sohaning yosh tadqiqotchilari ham ishtirok etdilar va ilmiy bahs – munozaralarda faol qatnashdilar. Nashr etilgan konferensiya to‘plamlarida Amir Temur davlatchiligi, boshqaruv, huquq tizimi, xalqaro munosabatlar, xo‘jalik rivoji, hunarmandchilik, arxitektura, amaliy san’at o‘sha davr manbalari ma’lumotlari tahlil etildi.

Shu o‘rinda G.A. Pugachenkova, R.G. Mukminova, E.V. Rtveladze, B.V. Lunin, A. O’rinboyev, D. Yusupova, O. Bo‘riyev kabi olimlarning mustaqillikkacha bo‘lgan davrda ham temurshunoslikning rivojiga tamal toshini qo‘yanliklarini yana bir bor ta’kidlash zarur. Zero, aynan ularning mustaqillik yillarida chop etilgan yirik nashrlarda Amir Temur hayoti va faoliyati tarixini mukammal yoritishdagi xizmatlarini e’tirof etish zarur.

Amir Temur davri tarixshunosligiga katta hissa qo‘shgan olimlardan biri B. Ahmedovdir. B. Ahmedovning maxsus tadqiqotlarida XIV asr o‘rtalarida Chig‘atoy ulusidagi ijtimoiy-siyosiy ahvol; amirlar o‘rtasidagi nizoning chuqurlashuvi;

davlatning tashkil topishi; qonun ustuvorligi; harbiy yurishlar va uning sabablari; Amir Temur ilm-fan va madaniyat homiysi kabi mavzularga e'tibor qaratilgan¹⁵. Aytish joizki, Amir Temurning shaxsi, hayoti, madaniy hayot masalalariga mavjud adabiyotlarda ko‘p hollarda umumiylar axborot shaklida qisqa to‘xtalib o‘tilgan edi. B. Ahmedov Amir Temurning harbiy yurishlarining sabab va oqibatlari masalasini, ya’ni Sohibqironning sarkardalik mahoratini yoritib beruvchi, uning jahon tarixidagi o‘rnini belgilashga xizmat qiladigan, temurshunoslikning bahsli muammolariga o‘z munosabatini bildirgan. Olimning Temuriylar davri tarixini o‘rganishda yo‘l qo‘yilayotgan xato va kamchiliklar xususida bildirgan tahliliy, hamda tanqidiy mulohazalari, Amir Temur shaxsi va faoliyatining noto‘g‘ri yoritilishi, bu mavzuning bahsli, yaxshi o‘rganilmagan sahifalari haqidagi fikrlari o‘rinlidir. Binobarin, mustaqillikkacha mavjud qarashlarga tanqidiy munosabat ham aks etgan edi¹⁶.

B. Ahmedovning G.A. Pugachenkova va R.G. Mukminova bilan hamkorlikdagi “Amir Temur” nomli kollektiv monografiyada Amir Temurning Yevropa va Osiyo tarixidagi buyuk xizmatlari, Buyuk ipak yo‘lini tiklagani, bunyodkorlik faoliyati, ilm-fan va madaniyatga homiyigligi xususida so‘z boradi¹⁷.

E.V. Rtveladze mustaqillikkacha davrda arxeologik izlanishlar olib bordi, mustaqillik yillarida u bibliografik tadqiqotlari bilan temurshunoslikning rivojiga katta hissa qo‘shdi¹⁸.

A. O’rinboyevning yozma manbalarni tarjima qilish va izohlar bilan nashrga tayyorlash sohasidagi xizmati temurshunoslikning rivojida yetakchi o‘rin egallaydi. Bu sohada u Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”sining ilmiy tanqidiy matni nashrini¹⁹ amalga oshirdi; Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma” asari tarjimasini F.Tauer

¹⁵ Ахмедов Б. Соҳибқирон Темур (хаёти ва ижтимоий-сиёсий фаолияти). – Т.: Абдулла Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашриёти, 1996. – 136 б. Ахмедов Б., Мукминова Р., Пугаченкова Г. Амир Темур – 263 б.

¹⁶ Ахмедов Б. Амир Темурни ёд этиб. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 226.

¹⁷ Ахмедов Б., Мукминова Р., Пугаченкова Г. Амир Темур... – С.18-59.

¹⁸ Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х. Амир Темур в зеркале мировой истории ... – 28 с.; Ўша муаллифлар. Амир Темур в зеркале мировой науки – 112 с.

¹⁹ Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома / Нашрга тайёрловчи, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи А. Ўринбоев. – Т.: Фан, 1972. – 1270 б.

nashriga solishtirib, unga tuzatishlar kiritib, ayrim sahifalarini qayta tarjima qilib nashr etti.

O. Bo‘riyevning Amir Temur sultanati tarixiga oid ilmiy izlanishlarida “Amir Temur ajdodlari” nomi bilan Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”sining “Muqaddima”si va 1360 – 1370 yil Movarounnahr voqealari bayoni qismlaridan lavhalar tarjima qilib, izohlar bilan alohida kitob holida hamda bunyodkorlikka oid ba’zi ma’lumotlarni chop etgan. Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asari tarjimasiga geografik nomlar izohini tuzgan²⁰.

O. Bo‘riyev tadqiqotlarida²¹ esa, o‘lkaning XIV – XV asrlar tarixiy geografiyasi o‘sha davri ijtimoiy-siyosiy voqealari bilan bog‘liq holda mavzuni tarixiy aspektida to‘ldirgan.

A. Ahmedov mustaqillikning dastlabki yillarida Amir Temur shaxsi va sultanati tarixini qayta, xolis o‘rganib baho berish masalasini ko‘tarib chiqib, Sohibqiron haqidagi tuhmat va xato fikrlarning asossizligini ko‘rsatdi²².

H. Bobobekov Amir Temur davri tarixining ayrim munozarali masalalariga o‘zining munosabatini bildirib, XIX asrda yaratilgan “Qissai Temur”ni “Temur tuzuklari”ning to‘la varianti²³ degan fikrni bildirdi.

T. Fayziyev Temuriylar shajarasini yozma manbalarga tayanib o‘rgangan, 300 dan ortiq malika va 192 ta shahzodalar taqdirini aniqlagan olimdir²⁴.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ijobiy yutuqlardan yana biri, xorij tadqiqotchilarining asarlarini o‘zbek va rus tiliga tarjima qilinishidir. Chunonchi, ingliz olimasi X. Xukxem bir joyda “Temur o‘zining favqulodda nodir salohiyati va izzat-nafsi tufayli o‘ta tolei kulgan shaxs edi, u O’rta Osiyo tarixida chuqr ildiz otgan

²⁰ Низомиддин Шомий. Зафарнома. Ҳоғизи Абронинг "Зафарнома"га ёзган "Зайл"и... – Б. 380-404, 445-448.

²¹ Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё (Тарихий-географик лавҳалар). – Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б. 168.; Ўша муаллиф. Темурийлар даври манбаларида Чагониён. – Т.: Фан, 2001. – Б. 5-7.

²² Ахмедов А. Амир Темур: уйдирма ва ҳақиқат // Фан ва турмуш. – Т.: 1990. – № 8. – Б. 15-16; – № 9. – Б. 8-9; – № 10. – Б. 20-22; Ўша муаллиф. Сомон йўли. – Т.: Камалак, 1992. – Б. 24-43.

²³ Қиссаи Темур. Малфузоти Темурий / Сўз боши, табдил ва изоҳлар Ҳ. Бобоев, Ҳ. Бобобеков, А.Куронбековники. – Т.: Махпират номидаги Ўрта Осиё халқлари институти, 2000.– Б. 6.

²⁴ Файзиев Т. Темурий маликалар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – 40 б.; Ўша муаллиф. Темурийлар шажараси масаласига доир // Амир Темур ва унинг жаҳон тарихидаги ўрни. Халкаро конференция тезислари.... – Б. 22-24.

imperiyaviylik va madaniy an’analarning davomchisi edi. Temurning tarix sahnasiga chiqishi tasodifly hol emasdi”²⁵, deb yozadi.

Fransuz temurshunosi L. Kerenna esa o‘z tadqiqotlarida: “Agar Amir Temur faqatgina jangu jadal, yohud ashaddiy istilolar ishqida yongan buyuk fotih bo‘lganida, u tarixni ko‘p ham qiziqtirmsdi”²⁶, deb yozadi. Albatta mazkur fikrlar Sohibqiron shaxsiga baho berishda shubhasiz katta ahamiyatga ega.

Movarounnahrning XIV asr 50-yillaridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotining yoritilishi masalasida B. Spuller, R. Gross, X. Xukxem, B.Mans, S.Jamoliddinning fikrlari V.V. Bartold, A.Yu.Yakubovskiy, I.P. Petrushevskiy, A.A. Semyonov, I.M. Mo‘minov, B. Ahmedovning xulosalari bilan mazmunan to‘g‘ri kelishi aytilgan. Biroq tadqiqotchi maqsadiga mazkur masalalar kirmaganligi sababli Rossiya sharqshunoslari asarlaridagi metodologik jihatlarga e’tibor qaratilmagan.

Mustaqillik davrida Amir Temur davlati boshqaruvi tizimi, iqtisodiy hayot, soliqlar masalasi shuningdek, sultanatning huquqiy asoslari bo‘lgani, islom dini, Qur’oni karim va hadislarda bayon etilgan tartib-qoidalarga tayanilgani ilmiy asoslanilganligini ta’kidlash zarur. Chunki “Temur tuzuklari”ning nashr etilishi huquqshunoslarning ushbu asarni huquqiy jihatdan tahlil qilishlariga xizmat qildi.

Xususan, H. Boboyev tomonidan Sohibqiron va uning avlodlari davridagi siyosiy, huquqiy ta’limotlar tadqiq etilib, unda davlatni idora qilish tadbirlari, kengashlar, vazirlar va amirlarni qo‘yish masalalariga e’tibor qaratilsa, Z. Muqimov ilmiy ishida O‘zbekiston tarixining VIII-XIX asrlariga oid tarixiy-huquqiy manbalar qatorida “Temur tuzuklari” ham tahlil etilib, huquqshunoslik nuqtai-nazaridan baholandi.

Mustaqillik yillarida yaratilgan ilmiy tadqiqotlarda sultanat boshqaruvida qonun ustuvorligi, raiyat manfaati va davlat ravnaqi ko‘zda tutilgan masalalarining tafsilotlari manbalar asosida yoritildi. Davlatda qonun barchaga – vazirlar, amirlar,

²⁵ Хукхем X. Етти иқлим султони / Рус тилидан X. Тўрабеков, Ш. Сокин таржимаси. – Т.: Адолат, 1999. – Б. 7.

²⁶ Кэрэн Л. Амир Темур салтанати / Б. Эрматов таржимаси. – Т.: Маънавият, 1999. – Б. 7; Керен Л., Сайдов А. Амир Темур ва Франция. – Т.: Адолат, 1996. – 84 б.

hokimlar, raiyat, hatto shahzoda uchun ham barobar bo‘lgani, davlat mansabini su’iste’mol qilganlik uchun jazolar berilgani ta’kidlandi.

1.2. Me’morchilik va san’at taraqqiyotiga oid tadqiqotlar tahlili

Amir Temurning madaniyat va san’at taraqqiyotiga e’tibori, homiyligi natijasida, uning davlatida me’morchilik, shaharsozlik, xattotlik, musiqa kabi sohalar rivojlandi. Ta’kidlash joizki, sovet tarixshunosligida Amir Temur davri me’morchiligi rivoji G.A.Pugachenkova, P.Zohidov, L.I.Rempel, N.Norqulov, O’.Alimov tomonidan o’rganilgan. Biroq ayrim tadqiqotlarda ham o‘z davrining mafkuraviy tazyiq sezilgani bois, me’morchilikning sun’iy rivoji, Amir Temurning bu boradagi o‘rniga e’tibor berilmaganligi kuzatiladi. O’zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, mazkur olimlar avvalgi tadqiqotlaridan farqli o‘laroq, madaniyat va san’at taraqqiyotida Amir Temurning o‘rni va homiyligini yangicha nuqtai nazardan mushohada qildilar.

Mustaqillik yillaridagi tadqiqotlarda Amir Temur saltanatida me’morchilikning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi va turli fikrlar mavjudligi aniqlandi. Xususan, Amir Temur me’morchiligiga oid tadqiqotlar ichida P. Zohidovning izlanishlarini alohida ta’kidlash darkor. Uning “Temur davrining me’moriy qahkashoni” nomli asarida Amir Temur davri me’morchiligining yetuk yodgorliklarini tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan²⁷.

P. Zohidov imoratlarni qurgan ustalar to‘g‘risida ma’lumotlarini tarixiy manbalardagi dalillar bilan asoslaydi. Masalan, Samarqand shahridagi Bibixonim masjidining qurilish sanasi, ustalar, imoratning qurilishiga daxldor tarix, binoning tavsifi va keyingi taqdiri to‘g‘risida ma’lumotlar qayd etgan²⁸. Asarning qimmati

²⁷ Зохидов П. Темур даврининг меъморий қаҳкашони. – Т.: Шарқ, 1996. – Б. 16, 47–48.

²⁸ Ўша асар. – Б. 26.

yana shundaki, kitob-albom shaklida yaratilgan bo‘lib, rangli suratlar me’moriy obidalar haqidagi tasavvurni kitobxonning ko‘z oldiga keltirish imkonini beradi.

P. Zohidovning boshqa izlanishlarida, tarixiy dalillar asosida Xorazmda ham Amir Temur tomonidan Oqsaroy degan yana bir imorat qurgani haqidagi fikri fanda yangilikdir²⁹.

Amir Temur davri me’morchiligiga oid tadqiqotlar ichida G.A.Pugachenkovning izlanishlari ham diqqatga sazovordir. Olima Amir Temur qurdirgan binolarning ulug‘vorligi va bezaklariga yuqori baho berib, me’morchilik san’atida hech qachon bunday yuksak badiiy saviyaga erishilmagan³⁰, deb yozadi.

Me’morchilik san’ati rivojida mahalliy va chetdan keltirilgan ustalarning hamkorligi keng ko‘lamda inshootlar barpo etilishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgani masalalari U.Uvatov, A. Muhammadjonov, A. O’rolov, M. Hojixonov tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Jumladan, A. Muhammadjonov Hindistondan olib kelingan yuzlarcha mohir g‘isht teruvchi binokorlar bilan bir qatorda Xorazm, Isfahon, Sheroz, Halab va Sharqning boshqa ko‘pgina shaharlarining mashhur usta hunarmandlari mamlakatda go‘zal imoratu inshootlar bino qilganini e’tirof etadi³¹.

A. Malikovning Xorazmlik ustalarning Amir Temur davrida Samarqandning qurilishlarida ishtirokiga doir mulohazalarida³² Shahrisabzdagi Oqsaroy va Jahongir maqbarasi, Buxorodagi Chashmayub maqbarasining qurilishidagi xizmatlarini e’tirof etadi va maqbara naqshlarini texnik jihatlarini Ko‘hna Urganchdagi To‘rabek hokim maqbarasi naqshlariga yaqinligini ta’kidlaydi.

G. Ostonovaning “Ahmad Yassaviy maqbarasi qurilishi tarixidan” maqolasida³³ manbalar, XX asr davomida yaratilgan tadqiqotlar asosida Amir Temur

²⁹ Зоҳидов П. Амир Темур Хоразмда курдирган Оқсарой // Амир Темур ва темурийлар даври: янги тадқиқотлар. Б. 95–101.

³⁰ Пугаченкова Г.А. Темур ва Улугбек даврида ижтимоий–иқтисодий ҳаёт // Темур ва Улугбек даври тарихи ... Б. 160; Ахмедов Б., Мукминова Р., Пугаченкова Г. Амир Темур ... – С. 147, 158.

³¹ Мұхаммаджонов А. Темур ва темурийлар салтанати ... – Б. 38.

³² Маликов А.М. Хоразмлик усталарнинг Амир Темур даврида Самарқанднинг қурилишиларида иштирокига доир // «Амир Темур ва унинг жаҳон тарихидаги ўрни» Халқаро конференция тезислари. – Б. 85-86.

³³ Остонова Г. Аҳмад Яссавий мақбараси қурилиши тарихидан // Амир Темур ва темурийлар даври: янги тадқиқотлар. Конференция материалари ... – Б. 115-128.

Ahmad Yassaviy qabri ustiga buyuk va salobatli go‘zal maqbara qurishga farmon bergani, uning qurilish tarixi saqlanishi haqida fikr yuritiladi. Tadqiqotchi bu asriy yodgorlik Amir Temur davri me’morchiligining toj asari bo‘lib, bir vaqtlar “Ikkinchi Makka” maqomini olganligiga urg‘u beradi.

S. Asqarxo‘jayev “Temuriylar davri me’morchiligining ma’naviy mohiyati xususida” nomli maqolasida³⁴ Amir Temurning Shahrisabzda qurdirgan binosi peshtoqiga: “Agar bizning qudratimizni bilmoqchi bo‘lsangiz, biz qurgan binolarimizga boqing” deb yozdirgan so‘zlariga urg‘u berib, Temuriylar bu qaydlarga amal qilganlarini tahlil qilib beradi.

A. Arapovning “Amir Temur me’moriy obidalari tarixiy bilimlar manbai sifatida” nomli maqolasida esa muallif Sohibqironning buyrug‘i bilan qurilgan me’moriy obidalar haqida jumladan, Kesh (Shahrisabz)dagi shayx Shamsiddin Kulol, Samarqanddagi shayx Nuriddin Basir, shayx Burxoniddin Sagarji, Toshkentdagi shayx Zayniddin Quyi Orifoni, shayx Zangi ota va uning ayoli Ambar bibi, Turkistondagi Ahmad Yassaviy maqbarasining go‘zal xususiyatlari xususida fikr yuritadi³⁵.

Tadqiqotchi N. Rajabova Amir Temur davriga oid arxeologik yodgorliklarni o‘rganilishi tarixiga murojaat etib, bu davr yodgorliklari endi tadqiq etilayotganligiga urg‘u beradi³⁶.

Ma’lum bo‘ladiki, mazkur tadqiqotlarda o‘sha davr me’morchilik san’ati yuksalishida Movarounnahrda mahalliy an’analar, malakali mutaxassislar avvaldan borligi hamda mahalliy va chetdan keltirilgan ijodkorlar hamkorligi mavjud bo‘lgani e’tirof etiladi.

“Amir Temur jahon tarixida” nashrida Sohibqiron saltanatida amaliy san’at o‘z navbatida me’morchilik keramikasi, parchin, relefli (bo‘rtma) sirli terrakota, mozaika,

³⁴ Аскархўжаев С. Темурийлар даври меъморчилигининг маънавий моҳияти хусусида // Амир Темур ва темурийлар даври: янги тадқиқотлар. Конференция материаллари ... – Б. 190-196.

³⁵ Арапов А. Памятники Амира Темура как источник исторического знания // Темурийлар даври маданий ёдгорликлари. Конференция материаллари ... – Б. 70-71.

³⁶ Ражабова Н. Қарши воҳасида Амир Темур даврига oid археологик ёдгорликларни ўрганилиши // Темурийлар салтанатида давлатчилик ва ренессанс ... – Б. 105-108.

g‘ishtli mozaika, monumental (mahobatli) rassomlik, tosh o‘ymakorligi va yog‘och o‘ymakorligi hamda badiiy hunarmandchiligi o‘sha davr madaniyatining, jahon sivilizatsiyasi tarixidagi ajoyib sahifa bo‘ldi, deb baho berilgan³⁷. Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Marv, Hirot, Mashhad, Sheroz, Kermon, Tabriz kabi shaharlar san’at va badiiy hunarmandchilikning dong taratgan markazlariga aylangan. Tadqiqotlarda Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlarida sopolni bezatishda yangi an’analarning texnologik asoslari umumiy tarzda “Temuriylar uslubi” deb nomlangan. Bu uslub XIII–XIV asrlardagi sirlangan buyumlardagidan tubdan farq qiladi³⁸.

G.A. Pugachenkovning fikricha, Amir Temur davri madaniy taraqqiyoti faqat mahobatli yodgorliklardagina emas, balki turli hajmdagi badiiy hunarmandchilikda ham namoyon bo‘lgan va yog‘och o‘ymakorligi, kandakorlik, kulolchilik, to‘qimachilik, gilamdo‘zlik san’ati ham yuksak darajada taraqqiy etgan³⁹.

P. Zohidov tadqiqotida imoratlarda foydalanilgan bezaklarda tosh ustunlar, izoralar, tosh qoplangan belbog‘lar, lojuvardli mayda sirkor g‘ishtlar, sirlangan sopol, gul bezakli suvoqlar, ganch va kundal o‘ymakorligi, yopishtiriladigan toshqog‘ozdan keng foydalanilgani aytilgan⁴⁰. Amir Temur davri amaliy san’ati “Temur va Ulug‘bek davri tarixi”, “Amir Temur jahon tarixida”, “Amir Temur” nomli nashrlarda ham yoritilgan.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda mazkur yo‘nalish bo‘yicha tadqiqotlar davom etdi. Jumladan, N. Habibullayev Amir Temur va Temuriylar davrida qo‘lyozmalarni tayyorlashdagi yozuv qurollari va materiallari hamda mazkur soha hunarmandlari haqida yozib, Amir Temur va Temuriylar davrida yaratilgan qo‘lyozmalar “Samarqand” yoki “Sharqiy” tip deb atalmish uzoq asrlar davomida

³⁷ Ўша асар. – Б. 165.

³⁸ Амир Темур жаҳон тарихида ... Мухаррирлар: Ҳ. Нурмуҳамедов ва бошқ. 2001. – Б. 161.

³⁹ Ахмедов Б., Мукминова Р., Пугаченкова Г. Амир Темур . – С. 213.

⁴⁰ Зоҳидов П. Темур даврининг меъморий қаҳкашони . – Б. 17.

tayyorlash jarayoni qariyb o‘zgarmagan qog‘ozlarda yozilganligini aytadi⁴¹. M.Mirzaahmedova kitob tayyorlash san’ati rivojida qog‘oz ishlab chiqaruvchi ustalar, xattotlar, kitob bezakchilari So‘g‘d, Baqtriya, Xorazm xalq amaliy va tasviriyligi san’ati an’analariiga tayanganlarini yozadi. Uning fikricha, Amir Temur davrida Movarounnahrda eng yaxshi qog‘oz ishlab chiqarilgan va O’rta Osiyoda qo‘lyozma kitoblarning ajoyib namunalari yaratilgan. Amir Temurning Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab savdo-sotiqlarni rivojlantirish yuzasidan qilgan sa’y-harakatlari mazkur soha yuksalishiga muhim zamin bo‘ldi, degan xulosaga keladi⁴².

G.A. Pugachenkova Amir Temur davri xattotlik san’atini yuqori baholab, saroy va madrasalar qoshidagi kutubxonalarda Qur’oni karim, hadis, Sharq mumtoz she’riyati namunalari va tarixiy asarlarning qimmatli qo‘lyozmalari yaratilganini va bu davrda kufiy, nasx va devoniyligi xat turlari qatorida, suls va yangi ixtiro qilingan nasta’liq yozuv turlari rivojlanganini qayd etgan. Amir Temurning saroy kutubxonasida mahalliy kitobat vakillari bilan birga chetdan keltirilgan xattot, muzahhib va naqqoshlar ijod etganiga e’tibor bergan⁴³. Amir Temur davri qo‘lyozma san’ati N. Norqulov va G.A. Pugachenkova tadqiqotlarida bir munkacha keng yoritilganini alohida qayd etish zarur. O’zbekiston Badiiy akademiyasining oltin medali sohibi mashhur xattot Salimjon Badalboyev, Amir Temur hukmronligi davrida xattotlik ilmi rivojlanib, san’at darajasida qadrlangan, o’nlab xattotlik maktablari vujudga kelib, bu sohaga oid risola va qo‘llanmalar yozilganini ta’kidlaydi. Jumladan, uning “Har xil xattotlik guruhi muayyan biror sohada o‘z vazifalarini bajarganlar. Masalan, nas va nasta’liq xatida tarixiy tazkiralar yozilgan. Boshqa guruh xattotlar esa badiiy asarlarni nasta’liqda ko‘chirishgan. Amir Temur hazratlari o‘z farmonlarini devoniyligi va rayhoniy xatida yozdirgan”⁴⁴, degan fikrlari juda qiziqarlidir.

⁴¹ Ҳабибуллаев Н.Н. Ўрта Осиёда қоғоз ишлаб чиқариш тарихи. – Т.: Фан, 1992; Ўша муаллиф. Амир Темур ва темурийлар даврида қўлёзмаларни тайёрлаш жараёни // “Амир Темур ва унинг жаҳон тарихидаги ўрни” Халқаро конференция тезислари . – Б. 71.

⁴² Мирзаахмедова М.К. Амир Темур // “Амир Темур ва унинг жаҳон тарихидаги ўрни” Халқаро конференция тезислари . – Б. 72.

⁴³ Ахмедов Б., Мукминова Р., Пугаченкова Г. Амир Темур. – С. 198.

⁴⁴ Бадалбоев С. Амир Темур даврида хаттотлик ривожланган // Маърифат. 2009, 4 апрель.

Miniatyuralar ham Sharq san'atining eng jozibador va nafosatli namunasi bo'lmish qo'lyozma kitob ziynatining tarkibiy qismi sanaladi.

Amir Temur davri Samarqand miniatyurasini o'rghanishga bag'ishlangan M.Ashrafiyning ilmiy izlanishlarida Samarqandda yig'ilgan mutaxassislar hukmdor kutubxonasi uchun nodir qo'lyozmalarni ko'chirish, bezash ishlarida band bo'lganligini yozadi⁴⁵. N.Norqulov xattotlardan Umar O'qta, Mir Ali Tabriziy, musavvirlardan Pir Ahmad Bog'ishimoliy, ustod Jahongir, Junayd Naqqosh, Muhammad Siyohqalam, Shohmuhammad va Shayx Muhammadning asarlarini sanab o'tadi; tadqiqotlarda Hoji Kirmoniyning asarini 1396 yilda Amir Temurning saroy xattoti xoja Mir Ali ibn Ilyos Tabriziy ko'chirgan, Junayd Naqqosh tasvirlar bilan bezagan, Britaniya muzeyida saqlanayotgan "Xamsa"si va Istanbulda 1398 yili xattot Mansur ibn Muhammad Varqa ko'chirgan 12 ta miniatyura, musulmon san'ati koshonasida saqlanayotgan tazkira qo'lyozmasini eslatadi.

G.A. Pugachenkova Amir Temur davrida Samarqandda miniatyura maktabi shakllanganini yozma manbalar (Ibn Arabshoh, Mirzo Haydar) ma'lumotlariga tayanib asoslaydi va Samarqandda ijod qilgan rassom Xoja Abdulhay Naqqosh, Shayx Mahmud Taliliy, Pir Ahmad Bog'ishamoliyni nomlarini aniqladi. Jumladan, Istanbul va Berlinda saqlanayotgan "Muraqqa"lardagi rasmlar, Temuriylar shajarasi, Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" qo'lyozma rasmlari, Xalil Sulton tasvirini aniqlab, badiiy xususiyatlarini tahlil qilib, Amir Temur davrida o'ziga xos miniatyura maktabi uslubi shakllanganini ko'rsatadi⁴⁶. "Amir Temur jahon tarixida" nashrida musavvir Xoja Abdulhay, Junayd Bag'dodiy, Shayx Mahmud Taliliy, Pir Ahmad Bog'i Shamoliy va ularga nisbat berilgan rasmlarning badiiy xususiyatlari o'r ganilgan⁴⁷.

⁴⁵ Ашрафий М. Темур ва Улубек даври Самарқанд миниатюраси. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. – Б. 8–9, 12, 15, 16.

⁴⁶ Ахмедов Б., Мукминова Р., Пугаченкова Г. Амир Темур ... – С. 198–199.

⁴⁷ Амир Темур жаҳон тарихида ... Муҳаррирлар: Ҳ. Нурмуҳамедов ва бошк. 2001. – Б. 161.

A. Umarov Amir Temur davri musavvirlik san'ati haqida fikr yuritar ekan Ibn Arabshoh, Vosify, Navoiy asarlariga murojaat etadi va musavvirlar, naqqoshlar, hunarmandlar haqida ma'lumot beradi⁴⁸.

Miniatyura san'atiga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mustaqillik yillarida O'zbekistonda chop etilgan ishlarda Amir Temur zamonida mahobatli devoriy rasmlar va nafis mo‘jaz miniatyuralar yaratilgan, ularning bir qismi rasmli qo‘lyozmalar shaklida bizgacha yetib kelgan, degan fikr ilgari surilgan.

G.A. Pugachenkova Amir Temur davri miniatyura san'atini o‘rganar ekan, avvalgi davr tasviriy san'ati davomi sifatida o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlab, rasmlar tahlilini yozma manbalar asosida tadqiq etgan. Amir Temur davrida yaratilgan nafis rasmli qo‘lyozma namunalari bo‘lgan noyob san’at obidalarining jahon muzeylari va kutubxonalarida mavjudligini G.A. Pugachenkova, N. Norqulov aniqlaganlar. Shuningdek, Amir Temur davrida mahalliy an'analar zamirida yangi uslub yaratilgani, badiiy hunarmandchilik asarlari yuqori saviyaga ko‘tarilganligi, Sohibqironning bu boradagi homiyligiga alohida e’tibor berilganini mustaqillik davri tarixshunosligining yutug‘i sifatida ko‘rsatishimiz mumkin.

Amir Temur saltanatida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot, Mavarounnahr xalqlarining XIV asrlardagi ijtimoiy hayoti yozma manbalar asosida qiziqarli yoritilgan. Ilmiy izlanishlarda Amir Temurning ilm-fan va madaniyat homiysi sifatidagi bunyodkorlik faoliyatiga haqqoniy baho berilgan.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, o‘rganilayotgan davr tadqiqotlarida Amir Temur hayoti va faoliyati davomida ilm-fan va madaniyat rivojining yuqori darajaga ko‘tarilganligi va uning keyingi taraqqiyoti uchun asos bo‘lgani, Eron, Xitoy, Hindiston, Arab mamlakatlarining madaniy an'analarini bilan mahalliy, ya’ni Markaziy Osiyo madaniyatining turli qirralari bilan birikib uyg‘unlashuvi jarayonida yangi uslub shakllangani e’tirof etilganini ko‘rsatish mumkin. Ushbu asosda Temuriylar davri fan va madaniyat rivoji «Renessans» deb tan olinganligi isbotlandi. Shu bilan

⁴⁸ Умаров А. Мусаввирлик санъати хақида // Амир Темур ва темурийлар даврида маданият ва санъат. – Т.: 1996. Б. 19-33.

birga mustaqillik yillarida mazkur sohaga faqat umumiy baho berilganligini va mavzu maxsus ilmiy tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmaganini ta'kidlash joiz. Fikrimizcha, yozma manbalar asosida olingan ma'lumotlarni yanada chuqurroq tadqiq etish, hamda madaniyatning turli qirralariga oid alohida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

II BOB. AMIR TEMURNING SIYOSIY FAOLIYATI

TARIXSHUNOSLIGI

2.1. Amir Temurning siyosiy hokimiyatga kelishigacha bo‘lgan davrdagi faoliyatining o‘rganilishi

Amir Temurning siyosiy faoliyati haqida so‘z borar ekan, eng avvalo, uning hokimiyatga kelgunga qadar bo‘lgan davriga katta e’tibor qaratilganligini aytish lozim. Chunki tadqiqotlarning aksariyatida Sohibqironning siyosiy hokimiyatga kelishi muammolari XIV asrning 60 – 70 yillarida Movarounnahrdagi siyosiy ahvol, Amir Temurning amir Husayn bilan ittifoqi, sarbadorlar harakatiga Amir Temurning munosabati, Sohibqironning siyosiy hokimiyatga kelishi kabi masalalar bilan bog‘liq holda o‘rganishni taqozo etadi. Temuriylar davri tarixiga oid yozma manbalarning ko‘pchiligidagi Amir Temurning hayotiga daxldor tarixiy voqealar, ayniqsa uning siyosiy maydonga kelishi sabablarini bayon qilib, ularda muarrihlarning shaxsiy munosabatlari bildirilgan. Shuni qayd etish kerakki, ularda bildirilgan umumiy fikrlar Amir Temurning yoshlik yillariga va uning 1344 – 1347 yillarda Movarounnahrdagi Chig‘atoy ulusining oxirgi mo‘g‘ul xoni Qozon Sultonxon (1332 – 1347) bilan amir Qazog‘on o‘rtasida yakka hukmronlik uchun bo‘lgan janglardagi ishtiroki, hokimiyat amir Qazog‘on qo‘liga o‘tib, bu bilan boshqaruvda amirlar hukmdorligi davri boshlangani masalalariga qaratilgan.

Qozonxon davrida Movarounnahrdagi itoatsizlik boshlangan bo‘lib, xon har kuni yuzlab odamlarni oliy jazoga hukm qilardi. A. Ziyo bu ahvolni sharhlar ekan, Chig‘atoy ulusi xonlarining Movarounnahrdagi mavqeい zaiflashib, mahalliy amirlar ularga o‘z hukmlarini o‘tkazish va xonlik bilan raqobatlashish qudratiga ega bo‘lgani bois, amir Qazog‘on ulus hukmdori Qozon Sultonxonni jangda yengib qatl etdi, degan fikrni bildirdi⁴⁹.

⁴⁹ Зиё А. Амир Темур ва Түғлук Темур // Шарқшунослик. – Т.: 1996. – № 6. – Б. 83.

Ba’zi tadqiqotlarda amirlardan Bayon Sulduz bilan Hoji Barlos Amir Qazog‘onning o‘g‘li amir Abdullohga qarshi chiqib, Samarqandga yurish qilgani va Mavarounnahrni o‘z tasarrufiga olib, chingiziy Yasun Temurxonning o‘g‘li Temurshoh o‘g‘lonni (1358 – 1359) xon qilib ko‘targani ham ta’kidlangan⁵⁰. Demak, davlatda amirlar boshqaruvi chog‘ida nomiga xon tayinlash an’anasi Amir Temurgacha ham bo‘lgan.

Nizomiddin Shomiy bu haqda shunday yozadi: “Amir Bayon Sulduz va amir Hoji Barlos mamlakatni va viloyatlarni o‘z tasarrufiga oldi. Amir Bayon mamlakatni boshqarish ishida g‘ofillikda sharobxo‘rlik va aysh–ishrat bilan mashg‘ul bo‘ldi... siyosat maqomiga kelganda sustlik va beparvolik qilardi. Donishmandlar demishlarki: “Mulk (podshohlik) siyosatsiz barqaror turmas va qilichsiz mustahkam bo‘lmas”. Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”sida ham shu mazmundagi so‘zlarni o‘qiymiz. Natijada ular davrida o‘lkada tartibsizliklar boshlandi. Barlos amirlari Shaxrisabzni, jaloyirlardan amir Boyazid Xo‘jandni, amir Qazog‘on xonadonidan bo‘lgan amir Husayn Balxni, naymonlardan bo‘lgan amir Hamidxoja Shibirg‘onni, amir Shohmuhammad Badaxshoni Ko‘histonni, amirlar Kayxisrav va O’ljoytu Aperdi ittifoq bo‘lib Xatlonni o‘ziga bo‘ysundirdilar. Shunday bo‘linish oqibatida fitna-fasodlar ko‘payib, mamlakatda tartibsizliklar boshlandi. Bunday tartibsizliklardan foydalanib, Mavarounnahrga mo‘g‘ul xoni Tug‘luq Temur bostirib keladi⁵¹.

Tadqiqotlarda amirlar o‘rtasidagi munosabatlar ham yoritilib, mazkur voqealar o‘sha davrda yuz bergen siyosiy o‘zgarishlar bilan bevosita bog‘liq edi. A. Ziyo o‘z ilmiy izlanishlarida amir Qazog‘onning nabirasi amir Husayn, bobo meros yurtiga da’vo bilan chiqqan va amakisi Qazog‘onning o‘g‘li Abdullohning o‘chini olish bahonasida amir Bayon Sulduzga qarshi kurash boshlagan⁵², deb yozsa, boshqa bir

⁵⁰ Темур ва Улугбек даври тарихи ... – Б. 72; Бўриев О. Темурийлар даври манбаларида Чагониён. – Т.: Фан, 2001. – Б. 5-7; Ахмедов Б., Мукминова Р., Пугаченкова Г. Амир Темур.– С. 19-20.

⁵¹ Натанзий Муиниддин. Соҳибқирон хаётидан лавхалар ... – Б. 5.

⁵² Зиё Азамат. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 156.

tadqiqotida uning amirlardan Xizr, Boyazid va Temurga suyanib, bobosi davridagi mavqeni tiklab olmoqchi edi⁵³, degan fikrni bildiradi.

Amirlarning ittifoqlikdagi faoliyati, ularning oqibatlari B.Ahmedov tadqiqotlarida ham tahlil etilgan. Muallif, amirlarning 1363 – 1364 yillarda Chig‘atoyxon naslidan bo‘lgan darveshlikda yurgan Qobulshohni xonlik taxtiga ko‘targanlari va shu voqeа (1364) amirlar ittifoqining buzilishiga olib kelganligini qayd etib, deb uning sababini esa shunday ko‘rsatadi: “Amir Husayn Amir Temurni uning nomzodini taxtga loyiq ko‘rib, qo‘llab-quvvatlamaganida ayblaydi. U xon bilan Amir Temurning orasiga rahna solish uchun, Tarmashirinxonning qizi to‘g‘risida Temur nomidan mish-mishlar tarqatdi”⁵⁴.

Tadqiqotlarda Movarounnahrning 1340 – 1360 yillardagi siyosiy ahvoli yozma manbalardagi ma’lumotlarni qayd etish bilan kifoyalanilganini ko‘ramiz. Bu esa o‘z navbatida voqeliklarni o‘sha davr manbalari bilan qiyosiy o‘rganib, so‘ngra yoritishni taqozo etadi. Shuningdek, mahalliy hokimiyatning amalda amirlar qo‘liga o‘tib, nomiga Chingiz avlodи vakillari xon qilib ko‘tarilishi an’anasi dastlab amir Qazog‘on tomonidan boshlangani, keyinchalik Amir Temur sultanatida ham davom etganini ko‘rsatish lozim, deb o‘ylaymiz. Shu bilan birga, Amir Temurning Tug‘luq Temurxon xizmatiga kirishi tadqiqotlarda turlicha izohlangan.

Tadqiqotchilar amirlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganar ekanlar, amir Husaynning halokatiga sabab, uning shaxsidagi salbiy jihatlar edi, deb umumiyl tavsif berish bilan cheklanganlar, xolos.

Amir Temurning dastlabki yillardagi siyosiy faoliyati bilan bog‘liq voqealardan biri bu Samarqanddagi sarbadorlar harakati masalasıdir. Ma’lumki, sovet tarixshunosligida “sarbadorlar”, “xalq qahramonlari”, ozodlik harakati vakillari degan xulosa ustuvorlik qilar edi. Zamonaviy tadqiqotlarda esa bu harakatga bo‘lgan munosabat bir munkha bahslidir. Mustaqillikning dastlabki yillarida “Sarbadorlar” harakati badiiy adabiyotda adib Muhammad Alining romanida tarixiy faktlarga mos

⁵³ Зиё А. Амир Темур ва Туғлук Темур ... – Б. 84-85.

⁵⁴ Ахмедов Б. Амир Темур хақида хикоялар ... – Б. 54.

holda yoritilgan⁵⁵. Aytish joiz, roman hali asosiy yozma manbalar to‘liq tarjima etilmagan, Amir Temur hayoti va faoliyati yaxshi o‘rganilmagan bir sharoitda yozilsa-da, haqqoniy yoritilgan. Romanda bu davr ijtimoiy-siyosiy ahvolini muallif “taxtsiz mamlakat” deb tasvirlaydi, sarbadorlarni esa zamonning eng ilg‘or kishilar deb hisoblab, ularning maqsadi Al-Forobiy orzu qilgan “fozil jamoa tuzish” edi va shu mavsadda ular boshlarini dorga tikkanlar degan umumiy xulosaga keladi.

B. Ahmedov sarbadorlar harakatini manbalarga tayanib ob’ektiv yondashgan holda ijobiy baholaydi. Olimning fikricha, mamlakat mo‘g‘ullarning oyog‘i ostida qolishi xavfi tug‘ilganda “menman degan beklar” uni himoya qilishga qodir bo‘limgan bir sharoitda sarbadorlar xalqning joniga oro kirdilar⁵⁶. Sarbadorlar mustahkam himoya qilgan Samarqand shahri ostonasida mo‘g‘ullar katta talofatga uchrab, chekinishga majbur bo‘lganlar. Buning sabablaridan biri sifatida Ilyosxo‘ja qo‘shinidagi otlarga vabo tarqalgani ham qayd etilgan⁵⁷. Boshqa tadqiqotlarda ham ushbu fikrlarni kuzatish mumkin. Jumladan, “Amir Temur jahon tarixida” kitobida “Shahar qamali uzoqqa cho‘zilib, shaharliklar Samarqandni mardona muhofaza qilayotgan edilar, dushman ham shaharni ololmay, holdan toygan edi. Shu payt, kutilmaganda, dushman otlari orasida vabo tarqaldi va ko‘p “ot o‘ldikim, to‘rt kishi arosida bir ot qolmadi. Va bu jihatdin barcha (mo‘g‘ul) parishon bo‘lib qaytdilar. Ko‘pi egarlarini orqalariga solib, tirkashlarini qo‘ltiqlarig‘a tutub ketdilar”⁵⁸, deb yoritilgan.

B. Ahmedov fikricha, sarbadorlar g‘alabasidan amir Husayn foydalanib, hiyla ishlatib, harakatning boshliqlarini qo‘lga tushiradi va Abubakr Kalaviy bilan Xurdak Buxoriyni osib o‘ldiradi. Mavlonzodani esa Temurbek dor ostidan qutqarib qoldi⁵⁹.

A.Yu.Yakubovskiy, I. Mo‘minov tadqiqotlarida sarbadorlar harakati rahnamolari bilan Amir Temur o‘rtasida oldindan munosabatlar bo‘lganligiga ishora

⁵⁵ Мухаммад Али. Сарбадорлар. Тарихий роман. – Т.: F. Fулом, 1992. 1-китоб. – 256 б., 2-китоб. – 240 б.

⁵⁶ Ахмедов Б. Амир Темур хақида хикоялар ... – Б. 32-35.

⁵⁷ Ахмедов Б., Мукминова Р., Пугаченкова Г. Амир Темур ... – С. 23-26.

⁵⁸ Амир Темур жаҳон тарихида Муҳаррирлар: Ҳ. Нурмуҳамедов ва бошк. ... 2001. – Б. 62.

⁵⁹ Ахмедов Б. Амир Темур хақида хикоялар ... – Б. 54.

qilingan, biroq aloqalar qanday vujudga kelgani aniqlanmagan edi. T. Fayziyev bu munosabatlarni avvaldan bo‘lganligi dalili sifatida sarbadorlar qirg‘in qilingandan so‘ng, Amir Temur bilan Husayn o‘rtasida dushmanlik avjiga chiqqanini fakt sifatida keltiradi⁶⁰.

Sarbadorlar harakati faqat mo‘g‘ul bosqinchilariga emas, balki mahalliy amaldorlarga ham qarshi qaratilganligi fanda qayd etilgan. Ammo ular amalga oshirgan demokratik tadbirlar xususida aniq fikrga kelinmagan. Tarixchilar Xuroson va Samarqand sarbadorlar harakatining o‘xhash tomonlarini yoritganlar, ammo bular orasidagi farqlarni to‘la qiyosiy tahlil qilmaganlar. Fikrimizcha, farq bu harakatga berilgan bahoda bo‘lsa kerak. Tadqiqotlarda Xuroson sarbadorlari faoliyati xalq harakati sifatida ijjobiy baholangan⁶¹.

Umuman olganda sarbadorlar harakati tadqiqotlarda turlicha izohlangan: Ba’zi tadqiqotchilar sarbadorlar harakatini salbiy baholab, ularning rahnamolarini avantlyurachilar, deb ayblashlarini, ularning qatl etilishini ma’qullashlarini xato deb o‘ylaymiz. Qayd etish kerak, bu harakat mo‘g‘ullarga qarshi ko‘tarilgan Mahmud Tarobiy qo‘zg‘olonining mantiqiy davomidir. Sarbadorlar harakati masalasining to‘liq bahosi fanda hali o‘zining uzil-kesil yechimini olmagan va harakatning tarixiy ahamiyati xususida yaxlit bir to‘xtamga kelinmagan. Fikrimizcha, keyingi yangi tadqiqotlarda birlamchi manbalarga tayangan holda izlanishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq. Shu o‘rinda Muiniddin Natanziy “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy” asaridagi mavzuga doir ma’lumotlar hanuzgacha tadqiqotlarga jalb qilinmaganligini aytish lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, 1340 – 1360 yillardagi Movarounnahr siyosiy hayoti, 1360 – 1370 yillarda Amir Temurning siyosiy faoliyati ham fanda kam o‘rganilgan, voqeliklar ko‘proq axborot shaklida bayon etilgan va tadqiqotlarning aksariyatida mualliflar asosan 1370 yildan keyingi siyosiy voqealarga e’tibor bergenlar.

⁶⁰ Файзиев Т. Темурийлар шажараси. – Т.: Ёзувчи, 1995. – Б. 22.

⁶¹ Каримов Ш., Шамсутдинов Р. Ватан тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – Б. 363.

2.2. Davlat boshqaruvi tizimining tarix fanida yoritilishi

Mustaqillik yillari ilmiy tadqiqotlarida Amir Temur sultanatida davlat boshqaruvining ma'muriy, harbiy va mahkama (sud) tizimi ma'lum darajada o'r ganilgan. Ma'lumki, ma'muriy boshqaruv tizimi 1370 yili Amir Temurning hukmdor deb tan olinishidan boshlanadi. Odatda davlat boshqaruvida eng oliv mansabga Chingizzon avlodidan nomiga xon tayinlangan. Amir Temur tomonidan qo'yilgan dastlabki xonning taxtga o'tkazilgan sanasi va joyi xususida tadqiqotlarda turli fikrlar bildirilgan. Masalan, bu voqeа hijriy 771 yil ramazon oyining boshida, ya'ni 29 mart 1370 yil Amudaryo bo'yidagi Elburz qal'asida⁶² chaqirilgan qurultoyda⁶³ yuz bergani aytiladi. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida⁶³ esa, 1370 yilning 11 aprelida Balxda Chig'atoy ulusining barcha beklari, amirlari, viloyat va tumanlarning dorug'alari hamda Termizning sayidlari, shuningdek, Amir Temurning yoshlikdan birga bo'lgan quroldosh do'stlari va piri Sayid Baraka ishtirokida o'tkazilgan qurultoyda an'anaga ko'ra chingiziylardan Suyurg'at mishxon mamlakat hukmdori deb e'lon qilingan, deb yozilganini ko'ramiz.

“O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari” kitobida ham “qurultoy” Balxda chaqirilgani, Sayid Baraka esa Termizdan uch farsax, ya'ni 20 km uzoqlikdagi Beva mavzesida Amir Temur qarorgohiga kelib Sohibqironga hukmdorlik ramzları bo'lmish bayroq va nog'ora topshirgani haqida fikr bildirilgan⁶⁴. Shu voqeа bilan bog'liq holda boshqaruv tizimidagi yana bir muhim holat – “qurultoy” kun tartibiga chiqadi. Aksariyat nashrlarda Balxdagi yig'in “qurultoy” deb atalsa-da, aslida manbalarda “mashvarat” deb yozilgan. Jumladan, Nizomiddin Shomiy Sohibqiron

⁶² Ахмедов Б., Мукминова Р., Пугаченкова Г. Амир Темур ... – С. 27.

⁶³ Мухаммаджонов А. Амир Темур // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: ЎМЭ Давлат илмий нашриёти, 2000. Жилд. I. – Б. 276.

⁶⁴ Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари ... – Б. 99; Каримов Ш., Шамсутдинов Р. Ватан тарихи ... – Б. 366.

amirlar va no‘yonlar bilan mashvarat tuzib, Suyurg‘at mishxonni Balx yaqinidagi O’rpo‘z mavzesida mamlakat podshohligi taxtiga o‘tqazdi⁶⁵.

Boshqa tadqiqotlarda birinchi qurultoy Samarqandda 1370 yil iyun oyida o‘tkazilgani, Amir Temur hokimiyati ixtiyoriy ravishda tan olingani va unda markaziy davlat tizimini shakllantirish, qo‘shinni tuzish kabi masalalar ko‘rib chiqilgani haqida aytiladi⁶⁶. Mazkur tadqiqotlarda mashvarat, kengashlar “qurultoy” deb chalkashtirilib, xatoga yo‘l qo‘yilgan. Qurultoy hukmronning farmoniga binoan o‘tkaziladigan, oliv yuridik kuchga ega bo‘lgan siyosiy tadbirdir. Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiylarning asarlarida birinchi qurultoy Amir Temur farmoniga binoan 1370 yili 22 iyulda Keshda bo‘lib o‘tganligi qayd etiladi⁶⁷. Ulardagi ma’lumotlarga ko‘ra, Amir Temur Balxni zabit etishidan oldin O’rpuz qal’asi yaqinida bo‘lgan mashvaratda esa, Suyurg‘at mishni xon lavozimiga ko‘targan va Balxdagi mashvaratda hukmdor sifatida tan olingen edi.

Ma’lumki, Markaziy Osiyo davlatchiligini yoritish masalasiga sovet davri tarixshunosligida salbiy qarashlar mavjud edi. Bunday qarashlar Amir Temur tomonidan tashkil etilgan o‘zbek davlatchiligi masalasiga ham tegishli edi, albatta. D. Abidjanova o‘z dissertatsiyasi doirasida fransuz sharqshunosi R. Grossening Markaziy Osiyoda Amir Temur tomonidan markazlashgan davlatning tashkil topishini tasodifiy hol, deb yozgan noto‘g‘ri fikrlarini isbotlashga urindi va bunda yozma manbalarga tayangan holda asoslab berdi. D. Abidjanova shuningdek, X. Xukxem va A.J. Toynbilarning Markaziy Osiyoda davlatchilikning an’anaviy taraqqiyoti xususida aytgan fikrlariga qo‘shiladi⁶⁸. “Temur qissasi” asarida esa Amir Temurning hokimiyatga kelishi xususida “Abul Barakotning tashabbusi bilan to‘y bahonasida taxt da’vogarlari bo‘lmish Shoh Mahmud Badaxshiy, Shayx Muhammad Bayon Sulduz, Amir Kayxusrav va Amir Temurni ham taklif etib, muzokara olib boradi va

⁶⁵ Шомий. Зафарнома ... – Б. 82.

⁶⁶ Ахмедов Б. Сохибқирон Темур ... – Б. 15; Ахмедов Б., Мукминова Р., Пугаченкова Г. Амир Темур ... – С. 29; Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи ... – Б. 156.

⁶⁷ Яздий. Зафарнома. Мовароуннаҳр воқеалари ... – Б. 228; Шомий. Зафарнома ... – Б. 86-87; Яздий. Зафарнома. 1997. – Б. 69.

⁶⁸ Абиджанова Д. Мавераунаҳр эпохи правления Амира Темура в англоязычной историографии... – С. 61.

Amir Kayxusravning taklifi bo‘yicha qur'a tashlanib Amir Temur shohlik mansabiga saylanadi”⁶⁹, deyilgan. Qur'a tashlanishi natijasida Amir Temurning tasodifiy ravishda hokimiyat tepasiga kelishi to‘g‘risidagi fikr shubhalidir. Chunki bunday ma'lumot o‘scha davr yozma manbalarining birortasida uchramaydi.

B. Ahmedov, A. Muhammadjonov, A. Ziyo tadqiqotlarida Amir Temur markazlashgan sultanatni ma'muriy, harbiy va mahkama tizimlari yaratish orqali boshqarganligi masalalari umumiylar tarzda yoritib berildi.

B. Ahmedov Amir Temurning vazirlarga qo‘ygan talablarini sanab o‘tar ekan, vazirlar sultanat ustunlari, ular mamlakat obodonchiligi, raiyatning tinchligi, sipohning ittifoqligi va xazina boyligini doimo nazorat qiluvchilar ekanligini ta’kidlaydi⁷⁰. Shu talablar asosida Sohibqironning amirlardan Dovud, Sorbug‘a, Husayn Barlos, Oqbug‘a, Hoji Mahmudshoh, Elchibug‘a bahodir va Davlatshoh baxshilarning vazirlikka tayinlangani haqida ma'lumot mavjud⁷¹. A. Muhammadjonov monografiyasida davlat tuzilishi qonun-qoidalari musulmon Sharqi davlatlaridan deyarli farq qilmay, uning boshqaruva tizimida mahalliy davlatchilik asriy an'analari o‘rin olgani, qo‘shni mamlakatlarning madaniy ta’siri asosida yangi tartib va qonunlar bilan takomillashgani⁷², to‘g‘risida fikrlar bildirildi. Shuningdek, asarda markaziy ma'muriyat devonbegi – bosh vazir va yana yettila vazirdan iborat arkoni davlat – vazirlar mahkamasidan tashkil topgani, vazirlik nomlari, vazifalari yoritilgan⁷³.

“O’zbekiston tarixi: Davlat va jamiyat taraqqiyoti” kitobida Amir Temur davlatining siyosiy tuzumi va dargoh, bosh vazir, unga qarashli bo‘lgan vazirliklar

⁶⁹ Амир Темур Кўрагон. Темур қиссаси / Бобобеков X., Бобоев X., Курунбеков А., Бобокалонов З., Мирзаев Т. – Т.: Фан, 2004. – Б. 10.

⁷⁰ Ахмедов Б. Сўз бошиси / Темур тузуклари / Форсчадан А. Соғуний ва X. Кароматов тарж. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.– Б. 8.

⁷¹ Ўша жойда. – Б. 53-56; Ахмедов Б. Соҳибқирон Темур ... – Б. 15-17.

⁷² Мухаммаджонов А. Темур ва темурийлар салтанати ... – Б. 25.

⁷³ Ўша жойда. – Б. 25-26; Бу шахсларнинг исмлари ва эгалаган лавозимлари хақида тўлиқ қаранг: Амир Темур жаҳон тарихида Мухаррирлар: X. Нурмуҳамедов ва бошқ ... 2001. – Б. 84.

boshqaruv tizimi chizmasida ko‘rsatilgan⁷⁴. Ammo ularning vazifalari haqida tafsilotlar berilmagan.

A. Ziyo esa boshqaruv ikki idora – dargoh va devonlar (vazirliklar)ga bo‘lingani, dargoh eng Oliy davlat idorasi bo‘lib, uning boshida amalda Amir Temur turgani, Oliy devonga esa devonbegi boshchilik qilganini qayd etgan⁷⁵. Amir Temur dargoh qoshida maxsus kengash tuzgan. Bu kengashda ichki va tashqi siyosatning eng muhim masalalari, mansabdor shaxslar tayinlash va boshqa masalalar muhokama qilingan. Kengash yig‘inlari kotib tomonidan yozib borilgan⁷⁶.

Ma’lumki, dargoh boshida rasman Chingizzon avlodlari bo‘lgan (1370 yildan Suyurg‘ot mish, 1388 yildan Sulton Maxmud) bo‘lsa-da, ammo amalda barcha hokimiyat Amir Temur qo‘lida edi. Tadqiqotlarda bu masalalar ham e’tibordan chetda qolmadi. Ayniqsa “yasoq”, ya’ni mo‘g‘ullar davridagi qonun-qoidalar majmui, haqida fikrlar bildirilgan.

Sh. O’ljayeva o‘z monografiyasida “Amir Temur va temuriylar davlatining sud tizimi”ni tahlil qilar ekan, “bu davrda jinoyatga jazo berishni kuchaytirishga emas, balki uning oldini olishga katta e’tibor berilgan”, degan fikrga keldi. Tadqiqotchi “Tuzuklar”ga suyangan holda, shariatga bog‘liq bo‘lмаган jinoyatlarga “Yaso” qonunlari bo‘yicha jazo berilgan⁷⁷, deb qayd etadi. Chunki Amir Temur va Temuriylar davlatida o‘g‘rilik, zo‘ravonlik, sharob ichish, zino va boshqa jinoyatlar uchun eng og‘ir jazolar tayinlanar edi.

Amir Temur davlati harbiy boshqaruv tizimini o‘rganilishi masalasiga O’zbekistonda asosan, mustaqillik yillarida e’tibor qaratildi. Bu xususda A.Muhammadjonov, B. Ahmedov, H. Dadaboyev, A. Ziyo tadqiqotlarida ayrim mulohazalar bildirilgan. A. Muhammadjonov davlatdagi yuqori harbiy unvonlar,

⁷⁴ Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. – Т.: Академия, 2000. I қисм. – 143 б.

⁷⁵ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи ... – Б. 175-177.

⁷⁶ Зиёев А. Амир Темур даврида давлат курилиши // Амир Темур ва унинг жаҳон тарихидаги ўрни. Халқаро конференция тезислари. (1996 йил 23-26 октябрь). – Т.: Ўзбекистон, 1996.– Б. 12-13.

⁷⁷ Ўлжаева Ш.М. Амир Темур ва темурийлар даврида миллий давлатчиликнинг ривожланиши. – Т.: Фан, 2005. – Б. 162.

mansabdlarning vazifalari, maoshi, ularga berilgan in’omlar haqida yozib, qisman qo’shining tuzilishi va qo’mondonlik darajalari tizimi, Amir Temurning harbiy san’ati xususida to’xtalgan. Bunda davlatni boshqarishda, toju-taxt egalarining vazifalari, vazir va qo’shin boshliqlarini saylash, sipohlarning maoshi, mamlakatni idora etish tartibi, davlat arboblari va qo’shin boshliqlarining burchi va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdlarning xizmatlarini taqdirlash tartibi bayon etilgan⁷⁸. Aytish kerakki, barcha tadqiqotchilar Amir Temurning yirik sarkarda sifatidagi harbiy mahorati va bu sohaga kiritgan yangiliklarini “Tuzuklar”ga tayanib yoritganlar⁷⁹.

H. Dadaboyev risolasida Amir Temurning harbiy mahorati, jahon harbiy san’ati rivojiga qo’shgan hissasi to‘g‘risida mulohaza yuritar ekan, uning qo’shin tuzilmasi va undagi boshqaruв tizimining Chingizzon qo’shini tizimidan farqli jihatlari keltiriladi⁸⁰. Jumladan, unda davlatdagi mashvarat (harbiy kengash)ning faoliyati, harbiy mansablar, ya’ni, qo’shining o’n, yuz, ming va tumanlarga taqsimlangani, ularga o‘nbegi, yuzbegi, mingbegi va tumanbegilar sardorlik qilganliklari ta’kidlanadi. Amir Temurning farmoniga binoan atoqli lashkarboshilardan to’rttasi birinchi darajali sarkarda, ya’ni beklarbegi tayinlangan, dongdor amirlardan biriga “amir ul-umaro” lavozimi berilgan va u oliv bosh qo’mondon, ya’ni Amir Temurning noibi vazifasini ado etgan. Qo’shining turli bo‘linmalariga uch yuz o’n uch bek boshchilik qilgani, ularning dastlabki yuztasi o‘nbegilik, ikkinchi yuztasi yuzbegilik, uchinchi yuztasi esa mingbegilik lavozimlarini egallagani, tumanlarga Sohibqironning farzandlari, nabiralari hamda amirlar Shayx Nuriddin, Hoji Sayfuddin, Shohmalik, Allohdod, Jahonshoh singari nomdor lashkarboshilar rahbarlik qilgani “Tuzuklar” asosida yoritilgan.

Chop etilgan ba’zi bir tadqiqotlarda harbiy lavozim masalasida ayrim chalkashliklar ko‘zga tashlanadi. Masalan, “tavochi” mansabi xususidagi mulohazalar

⁷⁸ Муҳаммаджонов А. Темур ва темурийлар салтанати ... – Б. 28-35.

⁷⁹ Ахмедов Б., Мукминова Р., Пугаченкова Г. Амир Темур ... – С. 53-55.

⁸⁰ Дадабоев Х. Амир Темурнинг харбий маҳорати. – Т.: Ёзувчи, 1996. – Б. 8-9.

bahslidir. “Tavochi” harbiy ishlar vaziri emas, mansabni anglatuvchi atama hisoblanadi⁸¹. H. Dadaboyevning fikricha, tavochilar zimmasiga farmonni kerakli joylarga tezlik bilan yetkazish, askar jamlash, qo‘shinlarning qarorgohi yoki safardagi o‘rni, jangovar tartibi – yasolini, bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishini nazorat qilishdan iborat bir qancha vazifalar yuklatilgan⁸². A. Ziyo “tavochi” atamasiga dargohdagi muhim lavozimlardan biri, yuqori darajadagi davlat mansabi deb izoh beradi⁸³. B. Ahmedov “tavochi” va “jarchi” atamalarining yozma manbalarda yonmayon kelishini ta’kidlagan, bu mansab haqida A.Yu. Yakubovskiy, A.A. Semyonov, M.Abduraimov tarafidan aytilgan fikrlarni ijobjiy baholab, ularga qo‘shimcha qilib tavochilar zimmasiga yuklatilgan bir qancha vazifalarni sanab o‘tgan⁸⁴.

“O’zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti” nomli qo‘llanmadagi chizmada Temuriylarning harbiy boshqaruvi tizimi – amir ul-umaro, qo‘shin boshliqlari (amirlar, mingboshi, yuzboshi, o‘nboshi, bahodirlar) va turli mansabdagi amaldorlar (tavochi, dorug‘a, qutvol, qorovulbegi, tunqotar, mirshab) aks ettirilgan, lekin yozma tafsilotlar berilmagan⁸⁵. Mavjud ishlarda amaldorlarning vazifalarini ko‘rsatish bilan cheklanilgan va ularning faoliyati e’tibordan chetda qolgan.

Tadqiqotlarda davlatdagi huquqiy munosabatlар islam dini, Qur’oni karim va hadislarda bayon etilgan tartib-qoidalarga asoslanilgani, shu jumladan, shariatga oid ishlarni islam qozisi, dunyoviy ishlarni ahdos qozisi, sipohiylar va askarlar orasida yuz beradigan huquqiy nizolarni qozi askar ko‘rib hal qilgani aytiladi. “Temur va Ulug‘bek davri tarixi” nomli kollektiv monografiyada shayxulislom, qozi al-quzzot (oliy sudya), qoziyi ahdos (odat bo‘yicha hukm chiqaruvchi sudya), qozi askar (harbiy sudya), sadri a’zam (oliy sadr), dodxoh (shikoyatlarni ko‘rib chiquvchi), muhtasib (shariat qoidalari ijrosi hamda bozorlarda narx navo, tarozilar to‘g‘riligi

⁸¹ Темур ва Улугбек даври тарихи ... Бош муҳаррир А. Асқаров. Масъул муҳаррир О. Одилхон. – Т.: Қомуслар Бош таҳририйати, 1996. – Б. 88.

⁸² Дадабоев Ҳ. Амир Темурнинг харбий маҳорати ... – Б. 13.

⁸³ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи ... – Б. 178.

⁸⁴ Аҳмедов Б. “Тавочи” ва “жарчи” атамалари ҳақида // Тарихдан сабоклар. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – Б. 414.

⁸⁵ Сагдуллаев А, Аминов Б, Мавлонов Ў, Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараккиёти. – Б. 144.

tekshiruvchi mansabdar) kabi huquqiy boshqaruv tizimiga oid atamalar keltirilgan, ammo ularning vazifalari borasida tafsilotlar berilmagan⁸⁶. Qoziliklar to‘g‘risidagi ma’lumotlar A. Ziyo va Sh. O’ljayeva tadqiqotlarida batafsilroq, ya’ni Amir Temur sultanatida huquqiy boshqaruvda qozilikning uch xil turi mavjudligi aytilgan: birinchisi – harbiy sohadagi jinoyat va nizoli masalalar bo‘yicha; ikkinchisi – islom shariati bilan bog‘liq jinoyat va nizolarga muammolarga tegishli; uchinchisi kundalik, fuqarolik va davlatga tegishli masalalar (o‘g‘rilik, moliyaviy va ma’muriy sohalar)ga oid⁸⁷. Shuningdek, Sh. O’ljayeva tomonidan markaziy, mahalliy, sud-huquq, harbiy va diniy boshqaruv tizimidagi mansab va unvonlar, ularning vazifalari kengroq yoritib berilganini ta’kidlash zarur⁸⁸.

Qoziliklar faoliyati haqidagi ma’lumotlar devon orqali shaxsan Sohibqironga muntazam ravishda hisobot tartibida berib turilgan. “Tuzuklar”da qayd etilishiga ko‘ra, sultanatda dunyoviy va harbiy jihatlarni Sohibqironning o‘zi nazorat qilgan, hamda kerakli jazoni ham aynan uning o‘zi bergen. B. Ahmedov davlatda qonun barchaga – vazirlar, amirlar, hokimlar, shahzodalar va raiyat uchun barobar bo‘lgan, deydi hamda bunga Amir Temur 1393 yildan boshlab Eronzamin va Ozarbayjoni idora qilib turgan amirzoda Mironshohni davlat ishlarini o‘z holiga tashlab qo‘ygani uchun mansabidan olib tashlaganini, yetti yillik yurish chog‘ida nabirasi Pirmuhammad Sultonning (Fors hokimi vazifasida) yo‘l qo‘yan sustkashligi uchun ham xuddi shunday jazoga tortilganini misol qilib ko‘rsatadi⁸⁹. Asarda Amir Temur raiyatni himoya qilishni qonun bilan mustahkamlagani, agar dorug‘alar va hokimlar xalqqa zulm qilib, ularni xarob qilgan bo‘lsalar, qilgan ishlariga loyiq jazo berilgani, Sohibqiron nafaqat o‘z xalqi, balki fath etilgan mamlakatlarning xalqini ham imkonni

⁸⁶ Темур ва Улугбек даври тарихи ... Бош муҳаррир А. Асқаров. Масъул муҳаррир О. Одилхон. – Т.: Қомуслар Бош таҳририйати, 1996. – Б. 88.

⁸⁷ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи ... – Б. 180; Ўлжаева Ш.М. Амир Темур ва темурийлар даврида миллий давлатчиликнинг ривожланиши ... – Б. 159.

⁸⁸ Ўлжаева Ш.М. Амир Темур ва темурийлар даврида миллий давлатчиликнинг ривожланиши ... – Б. 157-169.

⁸⁹ Ахмедов Б. Соҳибқирон Темур ... – Б. 23.

boricha qonun himoyasiga olgani ta'kidlanadi⁹⁰. Qonunlarning raiyat uchun ham barobar bo'lgani xususida B. Ahmedovning yozishicha, 1404 yil 9 oktyabrdan Temurbek ayrim qassoblarni, u Samarqandda bo'lmanan yillari, go'shtni ortiq narxda sotganlari uchun javobgar qilishni buyuradi. Shuningdek, moliga ortiq baho qo'yib sotgan ba'zi mahsido'zlar ham jazoga tortiladilar⁹¹. Yuqoridagi misollar bevosita Klavixo "Kundaligi"ga asoslangan holda berilgan. Fransuz temurshunosi L.Kerenning fikricha, Amir Temur yurishdan qaytgandan so'ng jarchilar vositasida shaharda adolat o'rnatajagini elga ma'lum qilgan va shu maqsadda qozixonalar ish boshlagan. Bunda ulug' amir yo'qligidan foydalanib, o'z shaxsiy manfaatlarini o'ylab ish tutgan imonsiz amaldorlar mansabi, molu dunyosi va saroy ahli bilan qarindoshligidan qat'iy nazar shafqatsiz jazolangan. Eng avvalo bosh vazir Muhammad Dovudni Amir Temur xalq ko'zi oldida jazolagan⁹².

Mustaqillik yillari tarixshunosligida "Amir Temur davlati", "Temuriylar davlati" kabi iboralarga munosabat bildirildi. Xususan A. Ziyo "davlatchilik asoslari yagona bo'lgach, o'zbek davlatchiligining Amir Temur boshqargan bosqichi" deyilsa haqiqatga mos tushadi"⁹³, degan fikrni ilgari suradi. Amir Temur davlati tushunchasi o'zbek davlatchiligining alohida taraqqiyot davri bo'lib, tarixchilar tadqiqotlarida⁹⁴ "mustaqil davlat barpo etish – Amir Temurning buyuk tarixiy xizmati" sifatida birinchi qatorga olib chiqildi. Tarix Amir Temurga Markaziy Osiyoni birlashtirishdek tarixiy burchni yukladi; hamda u o'z davlatining tuzilishi, qonun–qoidalarini tartibga solish bilan bir qatorda; oliy dargoh hayoti bilan bog'liq an'analarni yanada boyitdi.

Yozma manbalar⁹⁵ va ba'zi tadqiqotlarda⁹⁶ Amir Temurning 1391 yili mart oyida To'xtamishxon ustiga yurish qilib, Ulug' Tog'da toshga uyg'ur alifbosida o'yib

⁹⁰ Ахмедов Б. Амир Темур давлати // Амир Темур сабоқлари: З. Амир Темур ва унинг марказлашган давлат тузиш йўлидаги буюк хизматлари. Илмий-амалий анжумани материаллари. Т.: 1999 йил 23 декабрь. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 16.

⁹¹ Ахмедов Б. Амир Темурни ёд этиб... – Б. 21.

⁹² Кэрэн Л. Амир Темур салтанати / Б. Эрматов таржимаси. – Т.: Маннингиз, 1999. – Б. 152.; Керен Л., Сайдов А. Амир Темур ва Франция. – Т.: Адолат, 1996. – Б. 49.

⁹³ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи ... – Б. 163.

⁹⁴ Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари ... – Б. 93–103;

⁹⁵ Шомий. Зафарнома ... – Б. 158; Яздий. Зафарнома ... 1997. – Б. 130.

yozdirgan matnda o‘zini “Turon sulton” deb atagani e’tiborga loyiq⁹⁷. Bu bitik yozilgan xarsangtoshni A. Ahmedov va H. Bobobekov yo‘qolgan deb, xato hisoblaydilar⁹⁸. A. O’rinboyev esa xarsangtosh hozir Rossiya davlat Ermitaj muzeyida saqlanayotgani, unga o‘n bir satr yozuv bitilgan, yozuvning sakkiz satri qadimgi uyg‘ur va uch satri arab harfidadir, deb aniq ma’lumot bergen⁹⁹.

Tahlil qilinayotgan davr adabiyotlarida Amir Temur davlati o‘z tuzilishida mamlakat aholisining barcha ijtimoiy-qatlamlarini ifoda etgani, islam, shariat qonun-qoidalari,adolat mezonlari asosida boshqarilgani, qurultoy, kengash va mashvaratlar, davlat mulozimlari fazilatlariga katta e’tibor berilgani, saltanat iqtisodiy ahvoli, xazinaga bog‘liqligi kabi xususiyatlar ko‘rsatilgan. Xususan, markazlashgan davlat boshqaruvin tizimidagi ijobiy xususiyatlar bilan birga uning zaif tomonlari, ya’ni xususiy mulkchilikning o‘sishi, saltanat hududining uluslarga bo‘lingani ham ko‘rsatilgan bo‘lsa¹⁰⁰, boshqa bir tadqiqotda, Amir Temur yangi hokimliklar tuzishi, muzofot, viloyatlar va butun mamlakatni suyurg‘ol sifatida ularshib berishi bilan davlatni parchaladi, degan tanqidiy fikr ham bildirilgan¹⁰¹.

Amir Temurning davlat boshqaruvin mohiyati to‘g‘risida mustaqillikning dastlabki yillarda amalga oshirilgan ishlarda Chingizzon davlatining davomchisi sifatida baholash sezilsa, keyingi tadqiqotlarda esa Amir Temurning an’anaviy davlatchilikni qayta tiklagani yoritildi. Sh. O’ljayevaning tadqiqotida Amir Temur davlat boshqaruvin chingiziy an’analardan farq qiluvchi qator jihatlarini asoslab ko‘rsatishga harakat qilingan¹⁰².

⁹⁶ Муҳаммаджонов А. Темур ва темурийлар салтанати ... – Б. 15.

⁹⁷ Битикда ўн бир сатр ёзув битилган ва турон султони Темурбек 200 минг кишилик ўрдуси билан Тўхтамишхонга қарши отлангани айтилган. Шомий. Зафарнома ... – Б. 429.

⁹⁸ Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома ... 1997. – Б. 336.

⁹⁹ Ўринбоев А. Низомиддин Шомийнинг “Зафарнома” асарига кириш сўзи / Шомий. Зафарнома.Б. 429.

¹⁰⁰ Ахмедов Б., Мукминова Р., Пугаченкова Г. Амир Темур ... – С. 29-32.

¹⁰¹ Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари ... – Б. 97.

¹⁰² Ўлжаева Ш.М. Амир Темур ва темурийлар даврида миллий давлатчиликнинг ривожланиши ... – Б. 107-108.

III BOB. AMIR TEMUR SALTANATIDA IJTIMOIY–IQTISODIY VA MADANIY HAYOT TARIXSHUNOSLIGI

3.1. Movarounnahrning XIV – XV asr boshidagi ijtimoiy–iqtisodiy hayotiga oid izlanishlar

Amir Temur davridagi Movarounnahr xalqlarining hayoti va turmushi, XIV – XV asrlarda o‘lkadagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar mohiyati masalasi boshqa mavzularga nisbatan olimlar tomonidan o‘rganilgan muammolar qatoriga kiradi. Shuning uchun mustaqillikning dastlabki yillardanoq bu masalani yanada chuqurroq o‘rganishga e’tibor kuchaydi. Xususan, R.G. Mukminova manbalarni to‘plash va ularni tahlil qilish asosida Amir Temur davri Movarounnahrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni yoritishga harakat qildi¹⁰³. Mustaqillik yillarda esa R.G. Mukminova mavzuni yangicha nuqtai nazardan tahlil etganini kuzatish mumkin. Xususan, uning izlanishlari Movarounnahrda qishloq xo‘jaligining ahvoli, agrar munosabatlari dehqonchilik, chorvachilik, yerga egalik va hunarmandchilik masalalariga bag‘ishlandi.

Amir Temurning hokimiyatga kelishi va markazlashgan davlat barpo etilishi bilan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga intilish kuchayganligi, bunda sug‘orish inshootlarining qurilishiga katta e’tibor berilganligini qayd etish lozim. Shuningdek, dehqonchilikda turli ekinlar, Movarounnahr viloyatlarining joylashuviga qarab yetishtirilgan hosillar haqida muallif tomonidan to‘liq ma’lumotlar beriladi. Jumladan, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo vohasida bug‘doy, Samarqandda guruch, Balx atrofi, Shahrisabz yaqinida paxta ekinlari yetishtirilgan. Xorazm, Farg‘onada jo‘xori, arpa, tariq ekilgan bo‘lsa, mosh va no‘xat yetishtirish esa barcha hududlar uchun xos bo‘lgan¹⁰⁴. R.G. Mukminova ko‘plab manbalarni tahlil qilish asosida Amir Temur

¹⁰³ Мукминова Р.Г. Темур ва Улугбек даврида ижтимоий-иқтисодий ҳаёт // Темур ва Улугбек даври тарихи. – Т.: Комуслар Бош таҳририяти, 1996. – Б. 113-164.

¹⁰⁴ Мукминова Р.Г. Темур ва Улугбек даврида ижтимоий-иқтисодий ҳаёт // Темур ва Улугбек даври тарихи ... Бош муҳаррир А. Асқаров. Масъул муҳаррир О. Одилхон. – Т.: Комуслар Бош таҳририяти, 1996. – 264 б

davrida yerga egalik qilish shakllarini bir necha toifa, ya’ni davlat, mulk va vaqf yerlariga bo‘linganligini ta’kidlaydi. Ma’lumki, Amir Temur va Temuriylar davrida davlat yerlarini in’om qilish – suyurg‘ol etib berish keng tus olgan edi. R.G.Mukminovaning taxminicha, Amir Temurning ajdodlari suyurg‘ol asosida Kesh (Shaxrisabz) viloyatiga egalik qilganlar. Olimaning bunday xulosaga kelishiga sabab, o‘rta asr mualliflari, xususan, Mahmud ibn Valining “Oliy hazratlarining baxtli tug‘ilishi, ikki baxtli yulduz sohibi Amir Temur Ko‘ragonning joyi Keshda edi va uning avlodlari o‘sha viloyatda merosxo‘rlik huquqiga ega edilar”¹⁰⁵, degan fikrlari turki bo‘ldi. Demak, suyurg‘ollik Amir Temurgacha ham mavjud edi va uning hukmronligi davrida u keng rivojlandi. Muallif, “Temur shaxsan suyurg‘ollik egaligining vorislik bo‘yicha doimiy o‘tishini nazarda tutmagan. Lekin, sohib va ma’muriy shaxslarni tayinlash huquqi bo‘lgan suyurg‘ollik tizimi Temuriylar davlatini yemirilishiga olib keldi”¹⁰⁶, degan to‘g‘ri fikrni bildirdi. Darhaqiqat, aynan suyurg‘ol tizimi XV asr oxirida Movarounnahr siyosiy hayotidagi parokandalikning bosh sababchisi bo‘ldi.

R.G. Mukminova O’rta Osiyo xalqlarining turmush-tarzi, XIV – XV asrlar o‘lkadagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini yoritar ekan, tadqiqotlarida Amir Temurning markazlashgan davlat barpo etishi bilan ijtimoiy-iqtisodiy hayot yuksalishi sharoiti va sabablarini ham o‘rgangan¹⁰⁷.

Yuqoridagilarning barchasi Movarounnahrning iqtisodiy ko‘tarilishining natijasi bo‘lgan. Savdo yo‘llarini obodonlashtirish va nazorat qilib turish ko‘p jihatdan harbiy to‘qnashuvlarga olib kelgan.

1999 yilda rus tilida nashr qilingan “Amir Temur” kitobining “Amir Temur davri

¹⁰⁵ Ўша жойда.

¹⁰⁶ Ўша жойда.

¹⁰⁷ Темур ва Улугбек даври тарихи ... Бош мухаррир А. Аскarov. Масъул мухаррир О. Одилхон. – Т.: Қомуслар Бош таҳририйати, 1996. – 264 б – Б. 113-164.

Movarounnahrda ijtimoiy iqtisodiy hayot” nomli ikkinchi bobi¹⁰⁸ R.G. Mukminova tomonidan tayyorlandi va u 1996 yilda chop etilgan “Temur va Ulug‘bek davri tarixi” kitobidagi muallifni o‘zbek tilida yozgan variantining tarjimasi bo‘ldi.

Qayd etilgan kitoblarning mazkur bobidagi “Savdo yo‘llari” qismi G.A’zamova tomonidan tayyorlandi. Tadqiqotda Samarqand va Buxorodan chiqqan karvonlarning savdo yo‘nalishlarini shartli ravishda ikki guruhga ajratib, ya’ni janub va shimolga olib boruvchi yo‘llar misolida tahlil qilib berildi. Muallif, “O’z oldiga buyuk davlat yaratishni maqsad qilgan Temur o‘sha paytdagi karvon yo‘llarining ahamiyatini bilgan edi va undan o‘z tashqi siyosatida mohirlik bilan foydalandi”¹⁰⁹, degan to‘g‘ri ilmiy xulosaga keldi. G. A’zamova savdo yo‘llarining mamlakatni tashqi dunyo bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va harbiy maqsadlarda bog‘laganiga ham misollar keltiradi¹¹⁰.

Amir Temur davridagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot masalalariga doir mulohazalarni A. Muhammadjonovning “Temur va temuriylar sultanati” tarixiy ocherkida kuzatamiz. Keng kitobxonlar ommasiga havola etilgan ushbu kitobda Movarounnahr va Xuroson yerlarida Temur va Temuriylar sultanatidagi xo‘jalik hamda yer egaligi masalalari tahlil etiladi. Muallif “Temur ayniqsa Samarqand vohasi, poytaxt va uning tevarak-atrofining sug‘orilib obod etilishiga alohida e’tibor beradi”¹¹¹, degan fikrni misollar bilan isbotlab bersa-da, manbalarga iqtiboslar berilmaganligi sababli, uning qaysi adabiyotlarni tahlil etganligini aniqlash qiyin. Shuningdek, kitobda hunarmandchilik, savdo va pul munosabatlari asosan XIV asr oxiri XV asr boshlari davriga murojaat etilgan. R.G. Mukminovadan farqli o‘laroq, A. Muhammadjonov Movarounnahr va Xurosonda yer va mulkchilikni to‘rt shakli, “mulki devoniy” – davlat yerlari, “mulk” – xususiy yerlar, “mulki vaqf” – madrasa va ibodatxonalar

¹⁰⁸ Ахмедов Б., Мукминова Р., Пугаченкова Г. Амир Темур. – Т.: Университет, 1999. – С. 62-145.

¹⁰⁹ Темур ва Улугбек даври тарихи ... Бош мухаррир А. Аскаров. Масъул мухаррир О. Одилхон. – Т.: Комуслар Бош таҳририяти, 1996. – 264 б – Б. 154-164.

¹¹⁰ Ахмедов Б., Мукминова Р., Пугаченкова Г. Амир Темур ... (Савдо йўллари – Г.А. Аъзамова томонидан ёзилган). – С. 126-141.

¹¹¹ Муҳаммаджонов А. Темур ва темурийлар салтанати. – Т.: Комуслар Бош таҳририяти, 1996. – Б. 65.

tasarrufidagi yerlar va “jamoa yerkari”¹¹² mavjudligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, Temuriylar davrida davlat yerkarini suyurg‘ol tarzida in’om qilish keng tus oldi. Jamoa yerkari mulkchilikning qadimiy turlaridan bo‘lib, ular ko‘proq tog‘oldi nohiyalarning suvga tanqis joylarida birmuncha keng tarqalganligini qayd etadi. Lekin bir vaqtning o‘zida, bu fikrga qarshi o‘laroq, “mulkchilikning bunday turi Temuriylar hukmronligi davrida unchalik keng tarqalmagan bo‘lsa-da, har qalay mavjud edi”¹¹³, degan mulohazalarni bildiradi. A. Muhammadjonov Amir Temur va Temuriylar davrida savdo aloqalariga ham to‘xtalar ekan, “bu davrda Temur va uning mahalliy noiblari Xitoy va Hindistonda O’rta Osiyo orqali Yaqin Sharq va Yevropa mamlakatlariga yo‘nalgan asosiy xalqaro savdo “Buyuk ipak yo‘li”ni egallab, savdo karvonlari qatnovi xavfsizligini ta’minalashda muhim chora-tadbir ko‘radilar va Sharq bilan G’arb o‘rtasida savdo-sotiq hamda elchilik aloqalarini har tomonlama rivojlantirishga g‘oyat katta e’tibor beradilar”, degan fikri diqqatga sazovor.

“Amir Temur jahon tarixida” kitobida Amir Temur davri iqtisodiy va savdo aloqalari alohida bobida “hunarmandlik va hunarmandlar”, “ijtimoiy hayot va obodonchilik”, “er egaligi, moliya va soliq turlari” qismlariga bo‘lib yoritib berildi¹¹⁴. Aytish joizki, mualliflar jamoasi tarkibida R.G. Mukminova, A. Muhammadjonov, E.V. Rtveladzelarning borligi bu bob ular tomonidan yozilganligini ko‘rsatadi. Kitobda Amir Temurning yagona mustahkam sultanatni shakllantirish strategiyasida moliya muammolari o‘zining muhimligi bilan ajralib turar edi¹¹⁵, degan fikrga alohida qayd etiladi. Darhaqiqat, moliya davlat pul resurslarining markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan fondlarini vujudga keltirish, taqsimlash, ulardan foydalanishdagi iqtisodiy munosabatlarni ifoda qiladi. Mualliflar, “Amir Temur avvalo davlat moliyasining mo‘g‘ul va boshqa bosqinchilarga qaramligini uzil-kesil tugatdi, ulkan davlatning mustaqil davlat moliyasini yaratdi va uni muttasil takomillashtirib bordi, markazlashtirilgan davlat tarkibiga kirgan barcha mamlakatlar

¹¹² Муҳаммаджонов А. Темур ва темурийлар салтанати. – Т.: Комуслар Бош таҳририяти, 1996. – Б. 65-68.

¹¹³ Ўша жойда. – Б. 70-71.

¹¹⁴ Амир Темур жаҳон тарихида. – Мухаррирлар: Ҳ. Нурмуҳамедов ва бошқ Т.: Шарқ, 2001. – Б. 92-111.

¹¹⁵ Ўша жойда. – Б. 105.

moliyasini bir tizimga birlashtirdi va ularni ma'muriy boshqarish talablari asosida idora qilish usullarini joriy etdi”¹¹⁶, degan xulosaga keldilar.

Amir Temur davlatida budgetning mavjudligi masalalari, xazinaning chiqim qismi uchun soliqlar yig'ishning barqaror tizimi ishlab chiqilgani, ma'lum soliq siyosati olib borilgani numizmat olim I. To'xtiyevning tadqiqotida yoritildi. Tadqiqotchi 20 dan ortiq soliqlar turi mavjudligini qayd etar ekan, ularning asosiylarini sanab o'tadi: sar shumor – jon boshiga to'lanadigan soliq, miqdori 1 dinordan 10 dinorgacha bo'lgan, aholining hamma tabaqasiga tarqalgan va boylik darajasiga qarab aniqlangan; xarj – yer solig'i bo'lib, olingan hosilning uchdan bir qismiga teng bo'lib, pul yoki mahsulot shaklida olingan; sar daraxt – mevali daraxtlar va uzumzor uchun to'lanadigan soliq, pul shaklida olingan; dudi – tutun solig'i, har bir uy yoki hovlidan o'z ehtiyojlari uchun tayyorlanadigan o'tindan foydalanilganligi uchun soliq, mahsulot shaklida, keyinchalik esa pul shaklida olingan; avariz – favqulodda soliq, shahar yoki qishloq aholisidan urush chiqimlarini va saroyda o'tkaziladigan bayramlarni qoplash maqsadida olingan; uloq – davlat xizmatidagi odamlarga beriladigan ot; mir hazaron – ma'lum bir joyda yashovchi aholidan shu yerdagi qo'shinni ta'minlashga olinadigan soliq¹¹⁷. I. To'xtiyev “Tuzuklar”ga murojaat qilgan holda, Amir Temur pul siyosatini Movarounnahrning iqtisodiy rivojlanishi bilan mutanosib olib borgani, ayrim hollarda dehqonlar xarj solig'idan butunlay ozod etilganini isbotlashga urinadi. Tadqiqotchining fikricha, Amir Temurning iqtisodiyot islohotchisi sifatidagi faoliyati haqida juda oz aytilgan. Fikrimizcha, aynan shu sohadagi tadqiqotlarni kuchaytirish orqali Amir Temur iqtisodiy siyosatini, xususan pul-moliya tizimining rivojlanishi, ayniqsa, pul siyosatining mintaqa iqtisodiy yuksalishiga ta'siri jarayoni masalalariga oydinlik kiritish zarur. Chunki Amir Temur pul-moliya siyosati orqali o'z saltanatini

¹¹⁶ Амир Темур жаҳон тарихида ... Мухаррирлар: Х. Нурмуҳамедов ва бошқ Т.: Шарқ, 2001. – Б. 92-111.

¹¹⁷ Тўхтиев И. Темурийлар сулоласининг танглари. – Т.: 1996. – Б. 14; Ўша муаллиф. Амир Темур ва темурийлар салтанатида пул муомаласи тарихидан // Амир Темур ва темурийлар даври: янги тадқиқотлар. Республика илмий анжумани материаллари. Т.: Темурийлар давлат тарихи музейи, 18 октябрь 2004 йил. 2-китоб. – Т.: 2005. – Б. 112-116.

mustahkamlash uchun har tomonlama tashqi savdoni rivojlantirib, Vizantiya, Genuya, Ispaniya, Fransiya, Angliya, Xitoy, Hindiston bilan iqtisodiy aloqalarni kuchaytirishda Buyuk ipak yo‘lidan foydalangan.

Mustaqillik davrida amalga oshirilgan tadqiqotlarda Amir Temurning keng ko‘lamda olib borgan obodonchilik ishlariga urg‘u berilar ekan, ayniqsa bog‘dorchilikning san’at darajasigacha ko‘tarilganligi alohida ta’kidlanadi. Xususan, O’. Alimovning maqolasida Samarqand bog‘larining ikki xil usulda, ya’ni geometrik shaklda va tabiat manzaralari asosida tashkil topganligi haqida yoziladi¹¹⁸. Muallifning fikricha, bog‘larni yaratgan ustalar har tomonlama me’morchilik sohasidagi bilimlar va dehqonchilik madaniyatidan yaxshi xabardor bo‘lganligi bois, bog‘-saroylar katta mahorat bilan barpo etilgan. Shu bilan birga, garchi bu oromgohlarni barpo etishdan maqsad madaniy hordiq chiqarish bo‘lsa-da, har ehtimolga qarshi, u yerda mudofaa choralar ham ko‘rilgan. Bog‘lar zarurat tug‘ilganda harbiy lager, istehkom vazifasini ham o‘tagan edi. Bog‘lardagi favvoralar, sun’iy bunyod etilgan sharsharalar, hovuzlar haqidagi ma’lumotlarni O’. Alimov ko‘proq Rui Gonsales de Klavixo kundaliklariga suyangan holda yoritib berdi¹¹⁹.

Yuqorida qayd etilgan “Amir Temur jahon tarixida” nashrining “Bog‘ tuzish san’ati” qismida, Amir Temurning bu sohaga alohida e’tibor berib, uning farmoni bilan ko‘plab bog‘lar yaratilgani haqida ma’lumotlar keltiriladi¹²⁰. Xususan, Bog‘i Jahonnomo, Gulbog‘, Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Chinor, Bog‘i Shimol, Bog‘i Bihisht, Bog‘i Nav nomli bog‘larning yaratilishi tarixi, joylashgan o‘rni, tuzilishi, bezagi to‘g‘risidagi tafsilotlar keltiriladi. N. Norqulov mazkur bog‘larni muayyan tartibda, yagona tizim asosida yaratilganini qayd etar ekan, bunda ko‘proq o‘sha davr bog‘dorchilik mutaxassisi Niyoziy tomonidan yaratilgan “Irshod uz-ziroat fi ilm ul-hirosat” (“Ekin ekish yo‘riqlari dehqonchilik ilmida”) kitobidan foydalanganini

¹¹⁸ Алимов Ў. Амир Темур даврида боячилик санъати // Амир Темур ва унинг жаҳон тарихидаги ўрни. Халқаро конференция тезислари. ... – Б. 107-108; Ўша муаллиф. Амир Темур даврида боядворчилик // Амир Темур сабоклари: 1. Амир Темур ва инсон манфаатлари. Халқаро илмий конференция материаллари. Т.: 1997. – Т.: Шарқ, 1998. – Б. 51.

¹¹⁹ Ўша жойда. – Б. 52-53.

¹²⁰ Амир Темур жаҳон тарихида ... Мухаррирлар: X. Нурмухамедов ва бошк Т.: Шарқ, 2001. – Б. 152.

aytadi¹²¹. Ammo asar asosan Temuriylar davriga tegishli ekanligiga qaramay, mavzuning tarixshunosligini yoritishda ahamiyatga ega.

A. O’rolov va M. Hojixonovlar tadqiqotida chorbog‘larning qurilgan sanasi, kimga atab va qaysi voqeа munosabati bilan yaratilganiga e’tibor qaratiladi va Amir Temurning Markaziy Osiyo bog‘dorchilik san’atini rivojlantirishdagi rolini ochib berishga harakat qilganlar¹²².

N. Muhammadxo‘jayeva eng mashhur bog‘lardan biri – “Bog‘i Dilkusho” tarixiga oid yozma ma’lumotlar va tadqiqotlarni tahlil etar ekan, Samarqand shahri tevaragida bunyod etilgan bog‘lar o‘n ikkita bo‘lganligini ta’kidlaydi¹²³.

Tadqiqotlarda Amir Temur qurdirgan bog‘lar jahon bog‘dorchilik san’atiga hissa bo‘lib qo‘sildi, degan fikr ustuvorlik qiladi. Ularda yozma manbalardagi ma’lumotlar va miniatyuralardagi bog‘lar tasviri asosida ba’zan afsonaviy Eram bog‘lariga tenglashtiriladi, lekin bog‘-saroylarning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rsatilmagan. Fikrimizcha, keyingi tadqiqotlarda bog‘larning hovuzlari, me’moriy inshootlari, ariqlari, umuman flora va faunasi kabi boshqa tafsilotlari bilan birga chizma-tasvirlarini yaratish ishlariga e’tibor berish kerak.

Umuman, Amir Temur sultanatida ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarixshunosligi tahlilidan ma’lumki, mavjud ma’lumotlar o‘lkaning XIV – XV asrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida umumiylashtirilishi tasavvur beradi. Bu sohadagi izlanishlarni davom ettirish va maxsus ilmiy tadqiqot sifatida kengroq o‘rganish lozimligi hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

3.2. Ilm-fan rivojinining tadqiqotlarda yoritilishi

¹²¹ Норқулов Н. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавҳалар. – Урганч.: Хоразм, 1996. – Б. 20–22.

¹²² Ўролов А., Ҳожиҳонов М. Темурийлар маънавияти ва маданият. – Самарқанд: Суғдиёна, 1996. – Б. 68-80.

¹²³ Мухаммадхўжаева Н. Боги Дилкушо тарихига оид ёзма маълумотлар ва тадқиқотлар // Амир Темур сабоклари: 1. Конференция материаллари … – Б. 57-61.

Amir Temur ulkan va qudratli sultanat barpo etar ekan, ma’naviy madaniyatning yuksalishi, gullab yashnashi, bunyodkorligiga alohida e’tibor berdi. Shubhasiz, uning tarkibiy qismi sifatida ilm-fan rivoji ham Sohibqironning amalga oshirgan ishlari qatorida o‘z salmog‘i bilan ajralib turadi. Tabiiyki, mustaqillik yillari tarixshunosligida Amir Temur va Temuriylar davri ilm-fani rivoji bevosita Temuriylar davri bilan uzviy ravishda o‘rganildi. Chunki ilm-fan ravnaqi jamiyat va davlat taraqqiyotiga xizmat etishini yaxshi tushungan Sohibqiron noyob iste’dod va qobiliyat egalarini muhofaza qilish, ijodlari uchun shart-sharoitlar yaratib berishga alohida e’tibor berdi. Shuning uchun ham u o‘zining “Tuzuklari”da qayd etilgan 12 toifa va tabaqaning ikkinchisiga aqlii kishilar va kengash sohibarlarni kiritdi va ularni e’tiborli shaxslar deb bildi¹²⁴. Madrasalar, kutubxonalar, maktablar barpo etildi. Buning natijasi o‘laroq, Temuriylar davrida ilm-fan ravnaq topib, bu jahon tarixida “ikkinchi renessans” davri nomi bilan tilga olindi.

Ma’lumki, YUNESKO qarori bilan 1996 yil Amir Temurning 660 yillik yubileyi munosati bilan Parij shahridagi YUNESKO bosh qarorgohida “Temuriylar davrida fan, madaniyat va ta’lim ravnaqi” mavzuida ilmiy anjuman hamda ko‘rgazma bo‘lib o‘tdi. Bu tadbir xalqaro jamoatchilikni Amir Temurdek buyuk shaxsning jahon sivilizatsiyasi va madaniyati rivojiga qo‘shtigan munosib hissasini yuksak baholanganidan dalolat edi. Shu yili Toshkentda o‘tkazilgan “Amir Temur va uning jahon tarixidagi o‘rni” mavzuidagi xalqaro konferensiya¹²⁵dagi qator ma’ruzalar ham Amir Temur davri ilm-fan ravnaqi masalalariga bag‘ishlandi. Xususan, D. Yusupova, A. Xasanov, M. Xayrullayev, N. Norqulov, E. Karimov kabi tarixchilar Temuriylar davri madaniyati, ilm-fani yuksalishini bevosita Amir Temur nomi bilan chambarchas bog‘ladilar. A. Xasanovning “Amir Temur va Ibn Xaldun” maqolasida, 1401 yilning yanvar-fevral oyalarida Damashq qamal qilingan va ishg‘ol etilgan paytda Amir Temur bilan uchrashgan o‘z davrining yirik mutafakkiri Ibn Xaldunning “Ta’rif bi Ibn

¹²⁴ Темур тузуклари / Форсчадан А. Соғуний ва Х. Кароматов таржимаси. Сўз боши ва масъул мухаррир Мухаммад Али. – Т.: Шарқ, 2005. – Б. 76.

¹²⁵ Амир Темур ва унинг жаҳон тарихидаги ўрни. Халқаро конференция тезислари...

Xaldun” (Ibn Xaldunning tarjimai holi) qo‘lyozmasidagi qimmatli faktlarga e’tibor qaratildi. Uning qimmatli tarafı shundaki, qo‘lyozma Ibn Xaldun hayotlik paytida yozilgan. A. Hasanov, Sohibqiron va mutafakkirning 35 kun qamal davomida suhbat qurbanliklariga urg‘u berib, “Amir Temur yirik sarkarda va davlat arbobi bo‘libgina qolmay, balki o‘z davrining ma’rifatli kishilaridan biri bo‘lgan”¹²⁶, degan xulosani beradi va tarjimai hol qo‘lyozmasini Amir Temur davri tarixi to‘g‘risida qimmatli manba sifatida ilmiy doiraga kiritish taklifini beradi. Akademik M.M. Xayrullayev “Temur va temuriylar davrida madaniyat gullab-yashnashining asosiy omillari”¹²⁷ nomli tezisida madaniy-ma’naviy taraqqiyotning asosiy yo‘nalishi sifatida iqtisodiy-siyosiy o‘zgarishlar, boy madaniy zaminga asoslanganligi, boshqa davlatlar bilan madaniy aloqalarning tiklanganligi, so‘fiylik, jumladan naqshbandiylik bu davr madaniyatining yuksalishida g‘oyaviy omil bo‘lib xizmat qilganligini alohida ta’kidladi. E.Karimov Amir Temur davrida ma’naviy-diniy tafakkurning rivojlanishida so‘fiylik ta’limotining rivojlanganiga to‘xtaladi. Xususan, tadqiqotchi Amir Temur zamondoshlari Abdul Malik, Nuriddin Basir, Bahovuddin Naqshband, Xo‘ja Ali kabi tariqat shayxlari nomlarini tilga oldi¹²⁸.

“Amir Temur ilm-fan va san’at homiysi” tezisining muallifi N.Norqulov: “Amir Temur olimlar bilan suhbat va bahslar uyushtirishni yaxshi ko‘rgan. G’oliblarga u qimmatbaho tuhfalar bergen. Sohibqironning hayotlik paytidayoq uning saroyidagi olimlar ilmiy kashfiyotlar bilan shuhrat qozonganlar. Bular qatoriga nasta’liq xatining kashfiyotchisi Mirali Xattotni, o‘n ikki maqom ijodkori, muzika nazariyotchisi Abdulqodir Marog‘yni, buyuk riyoziyotchi G’iyosiddin Jamshidni, munajjim Sayyid Sharif Jurjoniyni, faylasuf, qomusiy olim Sa’diddin Taftazoniyini,

¹²⁶ Ҳасанов А.А. Амир Темур ва Ибн Халдун // Амир Темур ва унинг жаҳон тарихидаги ўрни. Халқаро конференция тезислари... – Б. 20-21.

¹²⁷ Ҳайруллаев М.М. Темур ва Темурийлар даврида маданият гуллаб-яшнашининг асосий омиллари // Амир Темур ва унинг жаҳон тарихидаги ўрни. Халқаро конференция тезислари. – Б. 51-53.

¹²⁸ Каримов Э. Темур ва темурийлар даврида маънавий, диний тафаккурнинг ривожланиши // Амир Темур ва унинг жаҳон тарихидаги ўрни. Халқаро конференция тезислари ... – Б. 77.

Xoja Muhammad Porsoni kiritish mumkin”¹²⁹, deb qayd etadi. Shuningdek, N.Norqulovning “Temuriylar davri madaniyati tarixidan lavhalar”¹³⁰ nomli risolasida yuqoridagi olimlar hayoti va ijodi to‘g‘risidagi ma’lumotlar nisbatan mukammal berilgan bo‘lib, muallif, ular orqali Amir Temurni ilm-fan va san’at homiysi, Temuriylar davri renessansining asoschisi, degan xulosaga keladi. N. Norqulov Sa’diddin Taftazoniyning faoliyatiga e’tibor qaratib, uning fiqxga oid asarlarini keltiradi¹³¹. B. Ahmedov Sa’diddin Taftazoniyning nafaqat fiqh ilmi bo‘yicha, balki tilshunoslik, mantiq, geometriya, arifmetika kabi sohalar bo‘yicha ham asarlari borligini qayd etgan¹³². “Temuriylar bunyodkorligi davr manbalarida” deb nomlangan to‘plamda Amir Temurning ilm-fanga, olimlarga bo‘lgan munosabati masalalari fors va arab manbalaridan o‘zbek tiliga o‘girildi. Jumladan, A. O’rinboyev “Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”sidan¹³³, “Abdurazzoq Samarqandiyning “Matla’i sadayn va majma’i bahrayn”dan¹³⁴, D. Yusupova “Fasih Ahmad Xavofiyning “Mujmali Fasihiy”dan¹³⁵, U. Uvatovning “Ibn Arabshohning Temur va temuriylar davri madaniy hayoti haqida”¹³⁶, O. Bo‘riyevning “Hofizi Abru “Geografiya”sidan¹³⁷, “Zayli Zafarnomai Shomiy”dan¹³⁸, Hofizi Abruning “Zubdat at-tavorix”dan¹³⁹ A.O’rinboyev va O.Bo‘riyev hamkorlikda Sharafiddin Ali Yazdiyning

¹²⁹ Норқулов Н. Амир Темур илм-фан ва санъат ҳомиysi // Амир Темур ва унинг жаҳон тарихидаги ўрни. Халқаро конференция тезислари ... – Б. 71.

¹³⁰ Норқулов Н. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавхалар ... – Б. 25-36.

¹³¹ Ўша жойда. – Б. 31-36.

¹³² Ахмедов Б., Мукминова Р., Пугаченкова Г. Амир Темур ... – С. 233.

¹³³ Ўринбоев А. Низомиддин Шомий “Зафарнома”дан // Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашриёти, 1997. – Б. 6-41.

¹³⁴ Ўринбоев А. Абдураззоқ Самарқандий. “Матла’и садайн ва мажма’и баҳрайн”дан // Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида ... – Б. 113-157.

¹³⁵ Юсупова Д. Фасих Аҳмад Ҳавоғий, “Мужмали Фасиҳий”дан // Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида Б. 98-112.

¹³⁶ Уватов У. Ибн Арабшоҳ. Темур ва темурийлар даври маданий ҳаётини ҳакида // Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида ... – Б. 158-165.

¹³⁷ Бўриев О. Ҳофизи Аbru “География”дан // Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида ... – Б. 62.

¹³⁸ Бўриев О. “Зайли Зафарномаи Шомий”дан // Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида . – Б. 75-80.

¹³⁹ Бўриев О. Ҳофизи Аbru “Зубдат ат-таворих”дан // Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида ... – Б. 81-83.

“Zafarnoma” sidan¹⁴⁰, G’. Karimov Muiniddin Natanziyning “Muntahab at-tavorixi Muiniy” dan¹⁴¹ mavzu doirasidagi ma’lumotlarni kitobxonga taqdim etdilar.

Amir Temur davri ilm-fan taraqqiyoti sababi, xususiyatlari tahlil etilgan M.M.Xayrullayev va H. Aliqulovning maqolasida XIV – XV asrlarda O’rta Osiyoda madaniyat oldingi davrlarga nisbatan o‘ziga xos ravishda taraqqiy etgani, san’at va ilm-fanning deyarli barcha sohalari rivojlangani, bu davrdagi madaniy ko’tarinkilik o‘zining xarakteri, yo‘nalishi jihatidan IX – XII asrlardagi O’rta Osiyo Uyg‘onish davrining qonuniy davomidir, deyiladi¹⁴².

A. O’rinboyev Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asaridan keltirgan tarjima – lavhada Amir Temur o‘z davri olimlaridan davlat bobida amaliy maslahatlar berishni talab qilgani haqida so‘z boradi. Jumladan, “...Sohibqiron hazratlari bu haqda tildagina aytish bilan kifoyalanib qolishni istamay, ...ulamolarga qarab: “O’tgan asrlardagi ulamolar sultonlarga yaxshilik vaadolat bobida yo‘l ko’rsatganlar, siz nega menga rahnamolik qilmaysizlar va men bajarishim vojib va lozim bo‘lgan narsalarni menga aytmaysizlar””¹⁴³, degan murojaatiga alohida urg‘u beriladi. “Amir Temur va Ulug‘bek zamondoshlari” deb nomlangan to‘plamda A.Habibullayev arab olimi Ibn Xaldunning “Tarjimai hol” asaridan ma’lum qismlarni tarjima qilib, Amir Temurning olimlarga munosabatini ko’rsatishga harakat qildi¹⁴⁴. Shuningdek tadqiqtchi o‘sha davrning yirik olim va fuzalolaridan Qozi Burhoniddin ibn Muflih, xorazmlik faqih Abduljabbor Ibn an-Nu’mon, shofi’iylar qozisi Sadriddin al-Munoviy, qustantaniyalik xatib, munajjim Abu Ali Badis, tabib va munajjim Ibn Zarzar al-Yahudiy, shayx va imom Muhammad Ibn Ibrohim al-Obiliy, mag’riblik avliyo shayx Abu Ya’qub al-Bodisiyning nabirasi Yahyo ibn Abdullohning

¹⁴⁰ Ўринбоев А., Бўриев О. Шарафиддин Али Яздий “Зафарнома”дан // Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида ... – Б. 85-97.

¹⁴¹ Каримов Ф. Муиниддин Натанзий. “Мунтахаб ат-таворихи Муиний”дан // Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида ... – Б. 56-60.

¹⁴² Хайруллаев М., Аликулов X. Темур даври маданияти // Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида ... – Б. 36.

¹⁴³Хайруллаев М., Аликулов X. Темур даври маданияти // Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида ... – Б. 51.

¹⁴⁴ Ҳабибуллаев А. Ибн Халдун. “Таржимаи ҳол”дан // Амир Темур ва Улугбек замондошлари хотирасида. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – Б. 32.

Sohibqiron haqidagi fikrlarini keltiradi¹⁴⁵. Yana bir muhim tomoni, Ibn Xaldunning Amir Temur bilan geografiya, tarix sohalaridagi chunonchi, tarixiy shaxslar Afrosiyob, Xusrav, Qaysar, Iskandar, Buxtannasr, Manuchehr haqidagi suhbatlari yozma manbalarda qayd etilgan ma'lumotlar asosida taqdim etildi¹⁴⁶.

U. Uvatov Amir Temurning olimlarga mehribon bo'lgani, sayidu shariflarni o'ziga yaqin tutgani, ulamo va fuzaloga to'la-to'kis izzat ko'rsatib, ularni har qanday kimsadan batamom yuqori ko'rib, ularning har birini o'z martabasiga qo'ygani to'g'risida yozadi. Jumladan, saroy munshiysi va xattoti Mavlono Shamsiddin haqida shunday ma'lumotlar keltirilgan: "Amir Temurning devoni munshiysi "kotib us-sirr" Mavlono Shamsiddin bo'lib, u o'z davrining qozisi-yu, zamonining fozili edi, insho xabarlarini tuzishda forsiy va arabiyya xohlagancha tasarruf yuritardi. Qalamining tig'i o'z iqlimlari fathida maxdumi (Temur)ning nayzasidan ham o'tkir edi. Temur vafotidan keyin u (bu ishdan) o'zini chetga olib, adabiyot bisotini yig'ishtirdi. Shunda unga: "Chehralar shodlandi, sen ham shodlanmaysanmi?" "Ishrat mayi sof bo'ldi (sen ham) ayshu-ishrat qilmaysanmi?", dedilar. U: "Mening qiymatimni biladigan odam dunyodan o'tdi va endi men boshqalar xizmatida o'z hurmatimni ketkazmayman"¹⁴⁷, deb javob qiladi. Sharqshunos olma D. Yusupovaning tadqiqotlarida asosan Xondamir asarlariga murojaat bo'lsa-da, shu bilan birga mavjud manbalarda Temur davri maorifi, ta'lim masalalariga alohida urg'u berildi. Olima bu davr madrasalarini oliy ma'lumot beradigan maskanlar qatoriga kiritadi. Bu yerda yetuk mutaxassislar dars berishganini ta'kidlaydi. Bu xususda "Temur tuzuklari"ga suyanib, "men buyurdimki, mening mulkimda yashashni ixtiyor etgan sayyidlar, tabiblar, mo'ysafidlar, ulamolar, darvishlar hamda barcha rohiblar maosh va nafaqa olsinlar..."

¹⁴⁵ Ҳабибуллаев А. Амир Темур ва Ибн Халдун. – Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт нашриёти, 2004. Б. 12-15.

¹⁴⁶ Ўша жойда. – Б. 16-20.

¹⁴⁷ Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихидан // Амир Темур ва Улугбек замондошлари хотирасида. – Б. 24-35.

va nihoyat, madrasa mudarrislari alohida haq olsinlar”¹⁴⁸, degan fikrlariga alohida urg‘u berildi.

B.Ahmedov Amir Temurning mamlakat obodonchiligi, ilm-fan va madaniyatni taraqqiy ettirishdagi xizmatlarini alohida ta’kidlab, Sohibqiron bu borada hech narsani ayamagani, Movarounnahrga boshqa o‘lkalardan nafaqat moddiy boyliklarni, balki hunarmandlar, musavvirlar, me’morlar, olimlarni ham keltirganini qayd etadi hamda, “fan va madaniyat arboblari, hunarmandlar qancha ko‘p bo‘lsa, hunarmandchilik, madaniyat, ilm-fan ham shuncha tez rivojlanadi, degan o‘y bilan shunday qildi”¹⁴⁹, degan xulosaga keladi.

G.A.Pugachenkova ishtirokida yaratilgan monografiyada Amir Temurning ilm-fan taraqqiyotiga qo‘sghan xizmati alohida ta’kidlanib, bu davrda ilohiyot, hadisshunoslik, fiqh, riyoziyot, ilmi-nujum, tabobat, tarix, falsafa, badiiy adabiyot, musiqashunoslik, she’riyat rivojlanganligi eslatiladi. Unda ilohiyot olimi Jamoliddin Xorazmiy (vafoti 1427 – 1428), fiqxshunos olim Abdumalik, Isomiddin Jazoiriy (vafoti 1389), nujum ilmi olimi Mavlono Ahmad, musiqashunos Abdulqodir Marog‘iy, Safiaddin va Ardasher Changiy, faylasuflardan Sa’diddin Taftazoniy (vaf. 1389), Mir Said Sharif Jurjoni shuningdek, mashhur tarixchilardan Nizomiddin Shomiy, Hofizi Abru, Ibn Arabshoh, Sharafiddin Ali Yazdiy nomlari keltirilgan¹⁵⁰.

A. Ziyo Amir Temur davri fan va madaniyati haqida so‘z yuritar ekan, “...jamiyat va davlat taraqqiyotini, kelajagini fan va madaniyat ravnaqisiz tasavvur qilib bo‘lmasligini Amir Temur yaxshi tushungan. Shuning uchun iste’dod egalari maxsus va doimiy e’tiborga muhtoj va loyiq bo‘lishlari, noyob qobiliyat egalarini muhofaza qilish, ijodlari uchun sharoit yaratish, turmushlarini ta’minlash zarurligini ham u to‘g‘ri anglagan”¹⁵¹, degan fikrni bildirdi. Jumladan, u bu xulosalarini Ibn Arabshoh, Mu’iniddin Natanziy fikrlari bilan isbotlashga harakat qiladi. A. O’rolov,

¹⁴⁸ Юсупова Д. Темур ва Темурийлар даврида маориф // Амир Темур ва унинг жаҳон тарихидаги ўрни. Халқаро конференция тезислари ... – Б. 68-69.

¹⁴⁹ Ахмедов Б. Амир Темур. Тарихий роман. – Т.: Халқ мероси, 1995. – Б. 582.

¹⁵⁰ Ахмедов Б., Мукминова Р., Пугаченкова Г. Амир Темур ... – С. 232-234.

¹⁵¹ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 197.

M. Xojixonov hammuallifligidagi kitobda Sohibqiron davridagi ilm-ma'rifat, ma'naviy, axloqiy masalalariga katta o'rin berdilar va "Temur davrida Samarqand va Shahrisabz musulmon dunyosining ilm va ma'rifat markazlariga aylangan edi"¹⁵², deb yozadilar.

Umuman, Amir Temurning ilm-fan va san'at sohasi fidoyilariga g'amxo'rlik va homiylik qilgani mustaqillik yillarda chop etilgan aksariyat tadqiqotlarda alohida ta'kidlangan. "Amir Temur jahon tarixida" nashrida Renessans Amir Temur buniyodkorlik faoliyatining bevosita natijasi ekanligi va shu asosda fan, adabiyot, miniatyura, amaliy san'at, musiqa va tomosha san'ati ravnaq topgani qayd etildi. Chunonchi, ushbu kitobda Amir Temur va Temuriylar davri tibbiyotiga yuqori baho berilib, Sharafiddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh ma'lumotlariga tayanilgan. "Amir Temur Shom (Suriya)dan Samarqandga o'zi bilan birga tabiblar sardori Mavlono Jaloliddin, Mavlono Sulaymonlarni olib kelgan. Mavlono Fazlulloh Tabriziy Amir Temurning shaxsiy tabibi bo'lgan. Bulardan tashqari, Amir Temur saroyida Mavlono Izzadin Mas'ud Sheroziy va Mavlono Farrux kabi mashhur tabiblar ham ijod qilishgan"iga alohida baho berildi¹⁵³. Amir Temurning yubileyi munosabati bilan xorij tadqiqotchilarining diqqat-e'tibori barcha masalalar qatori, ilm-fan ravnaqiga ham qaratildi. Fransiyada tashkil etilgan "Temuriylar davri tarixi va san'atini o'rganish fransuz-o'zbek madaniy aloqalari Uyushmasi" madaniyatlararo dasturi direktori Dudu Den Sohibqironni fransuz sarkardasi Napoleon bilan qiyoslaydi va Amir Temurning zabit etgan yerlarda binolar qurdirgani, kanallar qazdirib suv chiqartirgani, mamlakatning eng yaxshi ustalari, olim-fozillarini o'zi bilan birga olib yurib, beباо binolar bilan ko'pgina go'zal shaharlarga bezak qo'shgan shaxs ekanligini aytadi¹⁵⁴. L. Keren Amir Temur buniyodkor, fan va madaniyat homiysi sifatida Sharqdagi Uyg'onish davrining ikkinchi bosqichini boshlab bergen, bu bilan

¹⁵² Ўролов А, Хожихонов М. Темурийлар маънавияти ва маданияти. – Самарканд: Сўғдиёна, 1996. – Б. 59.

¹⁵³ Амир Темур жаҳон тарихида ... Мухаррирлар: X. Нурмуҳамедов ва бошқ. 2001. – Б. 145.

¹⁵⁴ Керэн Л., Saidov A. Амир Темур ва Франция. – Т.: Адолат, 1996. – Б. 15.

jahon, xususan, Sharq sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan shaxs, degan bahosi ham mavjud.

Mustaqillik yillarida xorijiy tadqiqotchilarining o'zbek tiliga tarjima qilingan asarlarida, chunonchi, ingliz tadqiqotchisi Xilda Xukxem Amir Temurni O'rta Osiyodagi XIV asrgacha bo'lgan taraqqiyotning siyosiy, iqtisodiy va madaniy qirralarini o'z siyosida mujassamlashtirgani, madaniy an'analarning davomchisi, ma'naviy hayotning yuksak qadriyatlarini egallagan, doimo olimlar davrasida ishtirot etib, elchilardan turli mamlakatlarning hukmdorlari, xalqlarining hayoti, xo'jaligi, dini haqida so'raganini ta'kidlaydi¹⁵⁵. Asarda olim, san'atkor, hunarmandlar to'g'risidagi ma'lumotlar siyosiy va iqtisodiy voqealar bayoni orasida keltirilgan¹⁵⁶.

Amir Temurning ilm-fanga e'tibori tarixshunosligining tahlili natijasida shu narsa ma'lum bo'ladiki, o'sha davrga oid yozma manbalarning tarjimalari barcha tadqiqotlar uchun manbaviy asos bo'lib xizmat qilgan. Tadqiqotlarda Amir Temurning olimlar, fan arboblarini o'z atrofiga to'plab, ular bilan maslahat qilib, kengashlar olib borgani, ma'rifat, din, ma'naviyatning uyushtiruvchi va tarbiyalovchi kuchiga ishongani qayd qilingan. Manbashunos olimlarning xizmati tufayli yozma manbalardagi ilm-fan ravnaqiga oid ma'lumotlar ilmiy muomalaga kiritilishi natijasida tadqiqotlarning saviyasi yuksalgani kuzatiladi. Ularda Amir Temurning ilm-fan ravnaqi yo'lidagi xizmati e'tirof etilib, yuqori baholangan.

¹⁵⁵ Хукхем Х. Властитель семи созвездий: Документально-историческая повесть / Пер. с английского Г. Хидоятова. – Т.: Адолат, 1995. – С. 12-13; Ўша муаллиф. Етти иқлим султони / Рус тилидан Х. Тўрабеков, Ш. Сокин таржимаси. – Т.: Адолат, 1999. – Б. 7-8.

¹⁵⁶ Хукхем Х. Етти иқлим султони ... – Б. 90.

XULOSA

Mazkur bitiruv malakaviy ishda Amir Temur hayoti va faoliyatiga oid mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar, yozma manbalar nashrlari, tarjimalari tarixshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq va tahlil etildi. Ta'kidlash joizki, mazkur yillarda O'zbekistonda, qisqa muddat ichida, Amir Temur sultanati tarixiga oid yozma manbalarning bir qismi ilmiy muomalaga kiritilgan va salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Sovet tarixshunosligida esa o'z davrining xos mafkuraviy yondashuviga qaramay, ma'lum ishlar amalga oshirilgan. Xususan, B.V. Lunin, I.M. Mo'minov, A.O'rionboyev, R. Mukminova, D. Yusupova, P. Zohidov, N. Norqulov, O'. Alimov kabi olimlarning mustaqillikkacha bo'lgan davrda ham temurshunoslikning rivojiga tamal toshini qo'yganliklarini ta'kidlash zarur va ularning ilmiy tadqiqotlarini tom ma'noda mustaqillik davrida Amir Temur sultanati tarixini yoritishda, temurshunoslik sohasida amalga oshirilgan ishlarni rivojlanishida manbaviy asos bo'lib xizmat qildi, deb aytish mumkin. Zero, aynan ular mustaqillik yillarida chop etilgan yirik fundamental nashrlarda Amir Temur hayoti va faoliyati tarixini mukammal yoritishdagi xizmatlarini e'tirof etish zarur.

Mustaqillik yillari tarixshunosligida Amir Temurning davlatchilik faoliyatini dolzarb mavzu darajasiga olib chiqishda, birinchi navbatda O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimovning asarlari, nutq va ma'ruzalari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Zero, ular Amir Temur hayoti va faoliyatini yoritishda uslubiy asos bo'lib xizmat qildi va mavzuni yangi mazmunda o'rganishga imkon yaratdi. 1996 yili Sohibqiron tavalludining 660 yilligining xalqaro miqyosda nishonlanishi esa yangi tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlarni yaratdi. Izchil munosabatning shakllangani tufayli, fanda sovet davrida Amir Temur shaxsiga nisbatan hukm surgan salbiy xulosa barham topib, mavzu yangi chizgilar bilan yoritildi. Hozirda Amir Temur tarixini har tomonlama o'rganish va tadqiq qilish borasidagi tarixchilar oldiga qo'yilgan vazifalarning hal etilib borayotganini ko'rsatishimiz mumkin.

Mazkur yillarda olib borilgan tadqiqotlarni tarixshunoslik nuqtai nazardan tizimlashtirilganda asosiy yirik yo‘nalish:

- Amir Temur hayoti va faoliyatiga oid manbalarni ilmiy muomalaga kiritilganligi;
- Sohibqironning markazlashgan davlat qurish borasidagi faoliyati tarixi;
- Amir Temurning bunyodkorlik faoliyati tarixiga oid ekanligi aniqlandi.

Ularning tahlili asosida tadqiqotlarda Amir Temur sultanatini boshqarishda, davlatchilik tarixida o‘ziga xos an’naviy uslub yaratilgani, madaniyat va san’at masalalarining yoritilishida o‘ziga xos yangicha yondashuvlar mavjudligi aniqlandi.

Bu yillarda Temuriylar tarixiga oid ko‘pgina manbalarning ilmiy muomalaga kiritilishi temurshunoslikning rivojiga hissa qo‘shdi. Olimlarning xizmati natijasida asosiy yozma manbalarning tarjimalari ilmiy izohlar bilan bosib chiqarildi va temurshunoslik sohasida yangi tadqiqotlar amalga oshirilib fanga salmoqli o‘zgarishlar olib kirildi.

Aytish joiz, yozma manbalarning tarjimalari dastlab maqolalarda, ulardan lavhalar to‘plamlarda, keyinroq risola va alohida nashr shaklida e’lon qilindi.

Mustaqillik yillarida Amir Temur shaxsiga nisbatan adolatning qaror topishini tarixni haqqoniy o‘rganishdagi yutuq sifatida aytishimiz mumkin. Amir Temur hayoti va faoliyatining tarixchi olimlar tomonidan o‘rganilishi va amalga oshirilgan tadqiqotlar yangi, avvalgiga nisbatan yuqori bosqichga ko‘tarilganini ko‘rsatadi. Ularda harbiy yurishlardan ko‘zlangan asosiy maqsad sovet tarixshunoslida qayd etilganidek, “talonchilik” va “bosqinchilik” emas, balki ezgu niyat, ya’ni Buyuk ipak yo‘lini, kommunikatsiyani tiklash, bu orqali esa savdo—sotiq, ilm—fan taraqqiyotini rivojlantirish uchun sa’y—harakatlar qilgani, bunyodkorlik ishlarini keng masshtabda olib borgani isbotlab berildi.

Mustaqillik davri tarixshunosligening yutuqli jihatlaridan yana biri, tadqiqotlarda Amir Temur sultanatining xalqaro munosabatlari tarixi va diplomatiya munosabatlari tarixining eng yorqin sahifasi bo‘lgani, bunda diplomatiya etiketlariga

qat'iy amal qilingani, Sohibqironning mazkur sohadagi mahorati yuqori baholanganligidir. Tadqiqotlarda Amir Temurning jahon tarixidagi xizmatlaridan biri sifatida dunyo xaritasiga siyosiy, geografik o‘zgarishlar kiritib, yagona siyosiy va iqtisodiy hudud yuzaga keltirgani va diplomatik munosabatlarni rivojlantirishga katta ahamiyat bergani alohida ta’kidlangan. Xususan, Xorazm, Mo‘g‘uliston, Oltin O’rda Misr, Turkiya, Xitoy, Yevropa davlatlari bilan olib borilgan diplomatik munosabatlardan ko‘zlangan asosiy maqsad savdo-sotiqni rivojlantirish ekanligi e’tirof etilgan.

Bu yillarda amalga oshirilgan ishlarning yana bir muhim jihatni bu madaniyat va san’at taraqqiyotida Amir Temurning o‘rnini va homiyligiga alohida e’tibor berilganligidir. Ularda sovet davrida Amir Temurga “vayronkor” deb berilgan bir yoqlama, salbiy fikrlar asossiz ekanligi, aksincha Sohibqironning o‘zga yurtlardagi obodonchilikka bo‘lgan e’tibori, uning bunyodkorlik, ilm-fan va madaniyat homiysi sifatidagi faoliyatiga yuqori va ilmiy asosli baho berildi.

Keng ko‘lamda amalga oshirilgan tadqiqotlar Amir Temurning tarixiy shaxs sifatida jahon tarixi va madaniyatida tutgan o‘rnini aniqlashga imkon yaratdi va bunda o‘zbek olimlari bilan bir qatorda jahon temurshunoslarining ilmiy hamkorligi ham kuzatiladi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quydagilarni tavsiya etish mumkin:

– Amir Temur davriga oid yozma manbalarni o‘zbek tiliga to’la ilmiy izohli tarjimalarini amalga oshirib borish maqsadga muvofiq. Zotan ular Sohibqiron hayoti va davlatchilik faoliyatini chuqurroq o‘rganishda yangi tadqiqotlarga manbaviy asos bo‘ladi, shu bilan birga mazkur mavzudagi ayrim bahs-munozarali muammolar ham o‘z ilmiy yechimini topadi. Shuningdek, manbashunoslik sohasidagi ilmiy izlanishlar davom ettirilib, yozma manbalarning tanqidiy, qiyosiy tahliliga bag’ishlangan maxsus tadqiqotlarni amalga oshirish zarur.

– Mavarounnahrning 1340 – 1350 yllar siyosiy-ijtimoiy tarixi tadqiqotlarda axborot shaklida qisqa yoritilgan. Vaholanki, bu davr keyingi kechgan siyosiy voqealarning ibtidosi sanaladi va uni kengroq yoritish lozim. 1360 – 1370 yllar

voqealariga baho berishda aksariyat tarixchilar bir yoki ikki manba bilan cheklanilgan va hozirda Amir Temur sultanati tarixi to'g'risidagi tarixiy asarlar yoki ulardan parchalar o'zbek tiliga o'girilganini hisobga olgan holda, ularni tadqiqotlarga kengroq jalg qilish kerak.

- Amir Temur sultanatining siyosiy tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotga oid muammolarni yoritishga yangi tarixiy hujjatlarni jalb etish, maxsus ilmiy tadqiqot sifatida kengroq o'rganish lozim;
- Amir Temur sultanati tarixiga oid mukammal bibliografik nashrlarni tayyorlash va chop etishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlari

1.1. Каримов И.А.Тошкентда Амир Темур хайкалини очилишига бағишенгандан тантанада сўзланган нутқ // Каримов И.А. Ехтиром. 1993 йил 31 август // Ўзбекистон: Миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура.–Т.: Ўзбекистон, 1996. Жилд II.

- 1.2. Каримов И.А. Амир Темур – фахримиз, ғуруримиз (Амир Темур таваллудининг 660 йиллигига бағишланган халқаро илмий конференсиядаги маъруза. 1996 йил 24 октябр) // Халқ сўзи. 1996, 25 октябр.
- 1.3. Каримов И.Тарихий хотирасиз келажак йўқ.–Т.: Шарқ, 1998
- 1.4. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.

II. O’zbekiston Respublikasi Rasmiy hujjatlari

- 2.1. “Амир Темур таваллудининг 660 йиллигини нишонлаш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори. 1994 йил 29 декабр // Халқ сўзи. 1994, 30 декабр.
- 2.2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “1996 йилни Амир Темур йили деб эълон қилиш тўғрисида”ги Фармони. Т.: 1995 йил 26 декабр // Халқ сўзи. 1995, 27 декабр.
- 2.3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Фанлар Академияси Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида”ги қарори. Тошкент. 1998 йил 27 ийул // Халқ сўзи. 1998, 28 июль.

III. Manbalar

- 3.1. Амир Темур аждодлари (Шарафиддин Али Яздийнинг “Зафарнома” асаридан терма-таржима) / Форс тилидан таржима, кириш сўз ва изохлар муаллифи О. Бўрийев. – Т.: Қомус, 1992.
- 3.2. Амир Темур Кўрагон. Зафар йўли. Таржимаи ҳол / Нашрга тайёрловчи, таржимон, сўз боши ва изохлар муаллифи Ашраф Аҳмад. –Т.: Нур, 1992.–112 б.
- 3.3. Амир Темур Кўрагон. Тузуки Темурий / Табдил ва нашрга тайёрловчилар: Ҳ.Бобобеков, Ҳ.Бобойев, А.Қуронбековлар. – Т.: Махпират номидаги Ўрта Осиё халқлари институти. 1999.
- 3.4. Амир Темур Кўрагон. Зафарнома / Сўзбоши, табдил муаллифлари Ҳ.Бобобеков, Ҳ. Бобойев, А. Қуронбеков. – Т.: Махфират номидаги Ўрта Осиё халқлари институти, 2000.
- 3.5. Амир Темур Кўрагон. Темур қиссаси / Бобобеков Ҳ., Бобойев Ҳ., Қуронбеков А., Бобокалонов З., Мирзайев Т. – Т.: Фан, 2004.
- 3.6. Вамбери Ҳ. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. Китобдан парчалар / Тўплади С. Аҳмад. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1990.
- 3.7. Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи / Б. Аҳмедовнинг кириш сўзи, изохлари ва таҳрири остида. Форс тилидан Б. Аҳмедов, Н. Норқулов, М. Ҳасаний таржимаси. – Т.: Чўлпон, 1994.

- 3.8. Низомиддин Шомий. Зафарнома / Форс тилидан ўтирувчи Юнусхон Ҳакимжонов. Таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир А. Ўринбайев. Изоҳлар ва луғатларни тузувчи Ҳ. Кароматов (географик номлар изоҳи О. Бўриевники). Ҳофизи Абронинг “Зафарнома”га ёзган “Зайл”и – (“Илова”)ни форсийдан ўтирувчи ва изоҳларни тузувчи О. Бўриев. – Т.: Ўзбекистон, 1996.
- 3.9. Темур тузуклари / Форсчадан А. Соғуний ва Ҳ. Кароматов таржимаси. Сўз боши ва масъул муҳаррир Муҳаммад Али. – Т.: Шарқ, 2005.

IV. Kitob va monografiyalar

- 4.1. Амир Темур ва Улугбек замондошлари хотирасида / Б. Аҳмедов, У. Уватов, Ғ. Каримов, А. Зиёйев, Д. Юсупова, О. Жалилов, А. Ҳабибуллайев, М. Ҳасанов. – Т.: Ўқитувчи, 1996.
- 4.2. Амир Темур жаҳон тарихида. / Муҳаррирлар: Ҳ. Нурмуҳамедов ва бошқ. – Париж–Т.: Шарқ, 1996.
- 4.3. Амир Темур жаҳон тарихида / Масъул муҳаррир Ҳ. Кароматов. Илмий муҳаррир О. Бўриев. Тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи нашри. – Т.: Шарқ, 2001.
- 4.4. Амир Темур библиографияси / Б. Аҳмедов, Б. Қосимов, И. Ниязов, Б. Баннопов, М. Зикруллайев, Я. Муҳаммедов. Марказий Осиёни тадқиқ қилиш Франсуз Институти. – Т.: 2003.
- 4.5. Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари (Қадимги замон ва ўрта асрлар). – Т.: Ўқитувчи, 1991.
- 4.6. Аҳмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. – Т.: Ўқитувчи, 1994.
- 4.7. Аҳмедов Б.А. Амир Темур. Тарихий роман. – Т.: Халқ мероси нашриёти, 1995.
- 4.8. Аҳмедов Б.А. Амир Темурни ёд етиб. – Т.: Ўзбекистон, 1996.
- 4.9. Аҳмедов Б.А. Соҳибқирон Темур (ҳаёти ва ижтимоий – сиёсий фаолияти). – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1996.
- 4.10. Аҳмедов Б.А. Амир Темур ҳақида ҳикоялар. – Т.: Ёзувчи, 1998.
- 4.11. Аҳмедов Б.А. Амир Темур дарслари (Умумий ўрта таълим мактаблари, лицей ва коллеж ўқувчилари учун қўлланма). – Т.: Шарқ, 2000.
- 4.12. Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари (Қадимги замон ва ўрта асрлар). – Т.: Ўқитувчи, 2001.
- 4.13. Аҳмедов Б.А. Ўзбекистоннинг атоқли тарихшунос олимлари (био-библиографик маълумотнома). – Т.: Чўлпон, 2003.

- 4.14. Ашрафий Муқаддима. Темур ва Улугбек даври Самарқанд миниатюраси. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996.
- 4.15. Бобойев Ҳ.Б. Амир Темур ва темурийлар салтанати. – Т.: Камалак, 1996.
- 4.16. Бўрийев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё (Тарихий-географик лавҳалар). – Т.: Ўзбекистон, 1996.
- 4.17. Бўрийев О. Темурийлар даври манбаларида Чағониён.–Т.: Фан, 2001.
- 4.18. Дадабойев Ҳ. Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати. – Т.: Ёзувчи, 1996.
- 4.19. Зийойев Ҳ. Олимнинг илмий жасорати // Буюк Амир Темур салтанати ва унинг тақдири. – Т.: 2008.
- 4.20. Зийо Азамат. Ўзбек давлатчилиги тарихи (энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Т.: Шарқ, 2000.
- 4.21. Иванин М.И. Икки буюк саркарда: Чингизхон ва Амир Темур / А.Маҳкамов таржимаси. – Т.: Фан, 1994.
- 4.22. Исоқова М. Костетский В.А. Ўзбекистон халқлари тарихи. 8-9 синф дарслиги. Т.: Ўқитувчи, 1995.
- 4.23. Каримов Ш., Шамсутдинов Р. Ватан тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1996.
- 4.24. Лунин Б.В. Амир Темур ва унинг даврига оид манбалар / Темур ва Улугбек даври тарихи / Бош муҳаррир А. Асқаров. Масъул муҳаррир О.Одилхон. – Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1996.
- 4.25. Мукминова Р.Г. Темур ва Улугбек даврида ижтимоий-иқтисодий ҳаёт // Темур ва Улугбек даври тарихи. – Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1996.
- 4.26. Муҳаммаджонов А. Темур ва темурийлар салтанати. Тарихий очерк. Тузатилган ва тўлдирилган иккинчи нашр. –Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1996.
- 4.27. Мухаммад Али. Сарбадорлар. Тарихий роман. – Тошкент: F.Ғулом номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992. 1-китоб. (2-китоб.)
- 4.28. Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли ёзма манбалар маълумотлар асосида. – Т.: 1968.
- 4.29. Мўминов И.М. Амир Темурнинг Ўрта Осиёда тутган ўрни ва роли. Иккинчи нашр. – Т.: Фан, 1993.
- 4.30. Норқулов Н. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавҳалар. – Урганч: Хоразм, 1996.
- 4.31. Пугаченкова Г.А. Темур ва Улугбек даврида ижтимоий-иқтисодий ҳаёт / Темур ва Улугбек даври тарихи.–Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1996.– Б.
- 4.32. Сайдкулов Т. Ўрта Осиё халқлари тарихининг тарихшунослигидан лавҳалар. – Т.: Ўқитувчи, 1993.
- 4.33. Темур ва Улугбек даври тарихи / Бош муҳаррир А. Асқаров. Масъул муҳаррир О. Одилхон. – Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1996.

- 4.34. Тўхтийев И. Темур ва темурийлар сулоласининг тангалари. – Т.: Фан, 1992.
- 4.35. Уватов.У. Соҳибқирон араб муаррихлари нигоҳида.–Т.: Шарқ,1996.
- 4.36. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари / Масъул мұхаррирлар: Д.А. Алимова., Е.В. Ртвеладзе. – Т.: Шарқ, 2001.
- 4.37. Ўлжайева Ш.М. Амир Темур ва темурийлар даврида миллий давлатчиликнинг ривожланиши. – Т.: Фан, 2005.
- 4.38. Ўролов А., Ҳожихонов М. Темурийлар маънавияти ва маданият. – Самарқанд: Суғдиёна, 1996.
- 4.39. Файзийев Т. Темурийлар шажараси. – Т.: Ёзувчи, 1995.– 352 б.
- 4.40. Файзийев Т. Темурий маликалар. – Т.: Faфур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994.
- 4.41. Ҳабибуллайев А. Амир Темур ва Ибн Халдун. – Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт нашриёти, 2004.
- 4.42. Ҳолбеков М. Амир Темурнинг Европа қироллари билан ёзишмалари. – Самарқанд: Мерос, 1996.
- 4.43. Юсупова Д. Амир Темур жаҳон тарихида / Масъул мұхаррир X. Кароматов. Илмий мұхаррир О. Бўрийев. Тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи нашри. – Т.: Шарқ, 2001.

V. Ilmiy to‘plamlar

- 5.1. Аҳмедов А. Амир Темур ҳақида ҳақиқат // Сомон йўли. – Т.: Камалак, 1992.
- 5.2. Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотирасида. – Т.: Ўқитувчи, 1996.
- 5.3. Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида / Тахрир ҳайъати: М.Хайруллайев, А.Ўринбойев, О. Бўрийев. – Т.: Халқ мероси, 1996.
- 5.4. Файзийев Т. Соҳибқирон маликалари; Соҳибқироннинг сўнгги кунлари // Сомон йўли. – Т.: Камалак, 1991.
- 5.5. Қайумов М Соҳибқирон билан учрашув / Сомон йўли. – Т.: Камалак.1991.
- 5.6. Ўринбойев А., Мусайев Ш. Шарафиддин Али Яздий. "Зафарнома" / Сомон йўли. – Т.: Камалак, 1991.

VI. Konferensiya va simpozium to‘plamlari

- 6.1. Амир Темур ва унинг дунё тарихидаги ўрни. Халқаро конференсия маъruzalari тезислари (1996 йил 22-23 май) – Самарқанд, 1996.
- 6.2. Амир Темур ва унинг жаҳон тарихидаги ўрни. Халқаро конференсия тезислари (1996 йил 23-26 октябр). – Т.: Ўзбекистон, 1996.
- 6.3. Амир Темур сабоқлари: 1. Амир Темур ва инсон манфаатлари. Халқаро илмий конференсия материаллари. Т.: 1997. –Т.: Шарқ, 1998.

- 6.4. Амир Темур сабоқлари: 2. Амир Темур илм-фан ва маданият ҳомийси. Халқаро илмий конференсия материаллари. Тошкент, 1998. – Т.: Faфур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1999.
- 6.5. Амир Темур сабоқлари: 3. Амир Темур ва унинг марказлашган давлат тузиш йўлидаги буюк хизматлари. Илмий-амалий анжумани материаллари. Тошкент, 1999 йил 23 декабр. – Т.: Шарқ, 2001.
- 6.6. Амир Темур ва темурийлар даври: янги тадқиқотлар. Республика илмий анжумани материаллари, 18 октябр 2004 йил. 2-китоб. – Т.: 2005.
- 6.7. Тарихий манбашунослик муаммолари // Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Т.: 2008.
- 6.8. Темурийлар салтанатида давлатчилик ва ренессанс // Темурийлар давлатчилиги ва ренессанси. Республика илмий анжумани материаллари, 23 март 2006 йил. 3-китоб. – Т.: 2007.
- 6.9. Темурийлар даври маданий ёдгорликлари. Темурийлар тарихига оид манбалар: муаммолар, мулоҳазалар. Республика миқёсидаги илмий анжуман материаллари, 18 октябр 2002 йил 1-китоб. – Т.: 2003.
- 6.10. Ўлжайева Ш. Амир Темур ва темурийлар даврида ижтимоий муносабатлар ҳамда дипломатик алоқалар тарихидан // Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар: тарих ва ҳозирги замон. Илмий-назарий конференсийа материаллари.–Т.: 2003.
- 6.11. Ўлжайева Ш. Амир Темур, Буюк ипак йўли ва халқаро муносабатларнинг ривожланиши // Халқаро конференсия материаллари. 1-қисм. – Т.: 2005.

VII. Xorijiy tillardagi adabiyotlar

- 7.1. Walter J. Fichel. Ibn Khaldun and Tamerlane / Univercity of California Press. – Berkeley and Los Angeles, 1952.
- 7.2. Mukminova R.G. Le role de la femme dans la societe de l'Asie Centrale sous les Timourides et les Sheybanides / L'Heritage Timouride Iran–Asie Centrale–Inde. XV – XVIII slectes. Cahiers D'Asie centrale. Tashkent–Aix-en-Provence, 1997. – N 3–4.

7.3. Fischel Waiter. Ibn Khaldun and Tamerlan. Their Historic in Damascus, 1401 a.d. (803 a.n.): a sady based on arabic manuscripts bu of Ibn Khalduns “Autobiographi...”. – Berkeley and Los Angelos, 1952.

VIII. Internet materiallari


8.1. <http://enc.mail.ru/article/1900129112>; <http://www.sngnews.ru/frame/article/20/60529.html>.

8.2. Vorobyov P.Timur Velikolepnyy. <http://www.peoples.ru/statesmen/tamerlan/>


ILOVALAR




Samarqanddagi Amir Temur haykali




Temur Tuzuklari



Херман Вамбери “Бухоро ёхуд
Мовароуннахр тарихи”




V.V.Bartold “Mussulman Culture”



В.В.Бартольд
“Туркестан монгольского нашествия”




В.В.Бартольд. Сочинения



Xurshid Davron “Amir Temur o’g’lining o’limi haqida rivoyat”


В.Д.Греков
Золотая Орда и её падение



Жан (Иоанн) Амир Темурува унинг саройи



Amir Temur davlati va tarixi muzeyi. Tashqi ko'rinishi.Toshkent.



Amir Temur davlati va tarixi muzeyi. Ichki ko'rinishi.Toshkent.